

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/06.04.2024. Tar.20.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

SULTONOV KOMILJON ASLONOVICH

**MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASHDA AMIR TEMUR OMILINING
TARIXIY TAHLILI**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по историческим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on historical sciences**

Sultonov Komiljon Aslonovich

Milliy o‘zlikni anglashda Amir Temur omilining tarixiy tahlili 3

Султонов Комилжон Аслонович

Исторический анализ фактора Амира Темура в осознании национальной
идентичности 25

Sultonov Komiljon Aslonovich

Historical analysis of the factor of Amir Temur in the awareness of national
identity 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 53

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/06.04.2024. Tar.20.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

SULTONOV KOMILJON ASLONOVICH

**MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASHDA AMIR TEMUR OMILINING
TARIXIY TAHLILI**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PHD/Tar1697 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdu.uz) va «ZiyoNET» axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Doniyorov Alisher Xudayberdiyevich
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Jamolova Dilnoza Muyidinovna
tarix fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Usmonov Baxriddin Axmedovich
tarix fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/06 04.2024.Tar.20.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «12» Oktabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (99866) 239-11-40, (99866) 239-18-92; Faks: (99866) 239-11-40; e-mail: rector@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin («95» raqam bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy). Tel.: (99866) 239-11-40, (99866) 239-18-92; faks: (99866) 239-11-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «12» Oktabr kuni tarqatildi.
(2025-yil «12» X dagi 6 raqamli reyestr bayonnomasi).



B.E.Ergashev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

F.A.Narmanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

G.B.Normurodova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashuv jarayonlari kuchayib, tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi tahdid va xatarlar tobora kuchayib borayotgan vaziyatda O‘zbekistondagi ma’naviy-ma’rifiy va mafkuraviy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish tobora dolzarblik kasb etmoqda. Mustaqillik yillarida ulug‘ ajdodlar tarixini xolis, manbalarga tayangan holda o‘rganish, tahlil etish va yangicha ilmiy yondashuvlar asosida ochib berish, shu asosda milliy qadriyatlarni tiklash hamda milliy o‘zlikni anglashni mustahkamlashda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlari, jumladan, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Rossiya, AQSh, Ispaniya, Italiya, Hindiston, Turkiya, Eron, Misr, Pokiston, Suriyadagi ilmiy tadqiqot markazlari va ta’lim muassasalari, shuningdek, BMT va YUNESKO singari yirik xalqaro tashkilotlar boshchiligida Amir Temur shaxsi, uning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, harbiy, madaniy-ma’rifiy faoliyatini yanada chuqur o‘rganishga qaratilgan tarixiy, siyosiy, harbiy, huquqiy, manbaviy tadqiqotlar olib borilmoqda¹. Bundan ko‘rinadiki, Sohibqiron Amir Temurning insoniyat taraqqiyotiga ko‘rsatgan ta’siri, unutilmas xizmatlari ma’rifatli dunyo tomonidan munosib baholanib kelinmoqda. Shu bois, hozirgi kunda ham bu boradagi tadqiqotlar soni va sifatini ko‘paytirish, o‘zaro xalqaro hamkorlik asosida Amir Temur shaxsining xolisona talqinini tashviqot qilish, yoshlar tarbiyasi, milliy o‘zlikni anglashda uning o‘gitlaridan foydalanish tobora dolzarb bo‘lib bormoqda.

Yangi O‘zbekistonda “Uchinchi Renessans” davrini boshlanishi uchun albatta tarixiy bosqichlarni eslash, ulardan o‘rnak olish zarur. Bu to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ham o‘z chiqishlarida ko‘p marotaba alohida ta’kidlaydi². Istiqloq yillarida ko‘plab mahalliy olimlar tomonidan Amir Temur faoliyati qayta o‘rganilib, uning tarixi xolislik asosida yoritib berildi. Bu jarayonda avvalgi davrda ko‘plab uchragan soxta tarix talqiniga yo‘l qo‘ymaslikka alohida e’tibor qaratildi. Yillar davomida olib borilgan tadqiqotlarni ilmiy sarhisob qilish, aniqlangan yangi ma’lumotlar, tarjima qilingan yangi manbalar asosida Amir Temur shaxsiga har tomonlama to‘liq baho berish orqali uning siyosiy- huquqiy va ma’naviy-ma’rifiy qarashlarining milliy o‘zlikni anglashdagi o‘rni masalasini birlamchi manbalar asosida tahlil qilish imkoni bo‘ladi.

Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2019-yil 28-iyundagi PQ4375-son “O‘smirlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli

¹ <https://en.unesco.org/silkroad/knowledge-bank/timurid-states-fifteenth-and-sixteenth-centuries>,

<https://study.com/academy/lesson/timurid-empire-history-architecture-map.html>,

<https://www.britishmuseum.org/collection/term/x23294>,

<https://faculty.washington.edu/dwaugh/01hist225/225chron/timurchr1.html>,

[https://www.cambridge.org/core/books/abs/cambridge-history-of-inner-asia/late-timurids-c-](https://www.cambridge.org/core/books/abs/cambridge-history-of-inner-asia/late-timurids-c-14501526/382A4FCACCA2D23E125DB49C0F5A118E)

[14501526/382A4FCACCA2D23E125DB49C0F5A118E](https://www.cambridge.org/core/books/abs/cambridge-history-of-inner-asia/late-timurids-c-14501526/382A4FCACCA2D23E125DB49C0F5A118E),

[https://www.britannica.com/topic/history-of-Central-Asia-](https://www.britannica.com/topic/history-of-Central-Asia-102306/Timur)

[102306/Timur](https://www.britannica.com/topic/history-of-Central-Asia-102306/Timur), <https://www.alfusaic.net/civilizations-101/timurid>, [https://iranicaonline.org/articles/economy-vi-in-the-timurid-](https://iranicaonline.org/articles/economy-vi-in-the-timurid-period)

[period](https://iranicaonline.org/articles/economy-vi-in-the-timurid-period), <https://historyofpak.com/political-history/timurid-empire-rise-conquests-and-cultural-legacy-in-central-asia>,

<https://yalebooks.yale.edu/book/9780300251128/from-genghis-khan-to-tamerlane/> va boshqalar.

² Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Ўқитувчи ва мураббийлар куни”га бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. 2019 йил. 1- октябрь // www.president.uz

kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevraldagi 140-son “Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori hamda ushbu sohaga oid tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy–ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mustaqillik davrida mahalliy temurshunoslik yo‘nalishi rivoji ikki bosqichda o‘rganildi:

Birinchi bosqich – 1991–1996-yillarni o‘z ichiga olib, asosan, Amir Temur va Temuriylar davriga oid manbalar hamda ma’lumotlarni qayta mushohada qilish va ilmiy qimmatini baholash; Ikkinchi bosqich – 1996-yildan hozirgi kunga qadar bo‘lgan davr. Ushbu bosqichda mavzuni o‘rganishda konseptual yondashuvlar tamomila o‘zgarib, tadqiqotchilarning faoliyati Amir Temur va Temuriylar merosini jahon hamjamiyati tomonidan ham e’tirof etilishiga qaratildi.

Bundan tashqari, mavzuga doir xorijiy tadqiqotlar ham tarixshunoslik jihatidan tahlil qilinib, tegishli xulosalar berildi.

Dissertatsiya birinchi bobining ikkinchi va uchinchi paragraflarida adabiyotlar sharhi batafsil berilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Termiz davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi milliy o‘zlikni anglashda Amir Temurning siyosiy-huquqiy va ma’naviy-ma’rifiy qarashlarining o‘rnini manbalar va ilmiy tadqiqotlar asosida ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Sohibqiron va uning faoliyatini o‘rganilishi bilan bog‘liq nazariy-metodologik qarashlarni qiyosiy tahlil qilish;

Amir Temur faoliyatiga doir mahalliy tadqiqotlarni to‘plash, davrlashtirish va tarixshunoslik tahlilini amalga oshirish;

Amir Temur shaxsining xorijiy tadqiqotlarda o‘rganilishini davlatlar kesimida ochib berish;

Istiqlol yillarida milliy o‘zlikni anglashda Sohibqiron Amir Temur shaxsi va uning rolini ko‘rsatib berish;

Amir Temur ma’naviy-ma’rifiy va bunyodkorlik faoliyatining jamiyat hayotiga ta’sirini manbalar vositasida asoslab berish;

Barkamol avlod tarbiyasida Amir Temur qarashlarining ahamiyatini mustaqil O‘zbekistondagi siyosiy, ma’rifiy va madaniy islohotlar misolida yoritib berish;

Markazlashgan davlatning tashkil topishi va yagona etnomadaniy muhitning shakllanishida Amir Temur va uning “Tuzuklari” o‘rnini ochib berish;

Amir Temurning ma'naviy-ma'rifiy qarashlarida diniy e'tiqod va bag'rikenglik masalasini tarixiy misollar va zamonaviy holat bilan qiyosiy tahlili qilish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Amir Temurning siyosiy-huquqiy va ma'naviy-ma'rifiy qarashlari aks etgan tarixiy manbalar va zamonaviy tadqiqotlar belgilab olingan.

Tadqiqotning predmetini tarixnavislarning asarlari, zamonaviy temurshunos olim va yozuvchilar, siyosatshunos, faylasuflarning Amir Temur ma'naviy merosiga, uning ma'naviy-axloqiy qarashlariga oid fikr mulohazalari, taklif va tavsiyalari, bu ma'lumotlarning o'zlikni anglashdagi ahamiyati, shuningdek xorijlik tadqiqotchilarning mulohazalari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada qiyosiy tahlil, manbalar bilan ishlash, analiz va sintez, fanlararo yondashuv kabi usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Yillar davomida ba'zi sovet va xorijiy tadqiqotlarda Amir Temurning harbiy yurishlarini "vayronkor, bosqinchilik" yurishlar sifatida salbiy baholanib kelingani, haqqoniy tarixni tiklanishi natijasida bu harbiy yurishlar "bosqinchilik, istilochilik" emas, balki xalokkorlik va "futuxot", ya'ni ochish yoki kashf etish urushlari bo'lgani, Amir Temur mag'lub millatning madaniyati, tili, dini yoki turmush tarziga daxl qilmay, aksincha, ularga ravnaq bergani isbotlangan;

Sovet davrida yozilgan ilmiy tadqiqotlarda Amir Temur davridagi siyosiy-iqtisodiy jarayonlar, ayniqsa harbiy jarayonlar ko'proq yoritilgani, Amir Temur shaxsiyati, ma'naviyati, uning o'ziga xos fazilatlarini, ruhiyati, ayniqsa, diniy qarashlari va dinga munosabati, tolerantligi, ya'ni uning yuksak ma'naviyatini ko'rsatuvchi omillar yetarli darajada ochib berilmagani, markaz buning jamiyatdagi aks sadosidan qattiq qo'rqqani dalillangan;

O'zbekistonda I.Mo'minov, B.Ahmedov, D.Yusupova, X.Karomatov, A.O'rinboyev, A.Ahmedov, H.Ziyoyev, U.Uvatov, T.Fayziyev, G'.Karim, O.Bo'riyev, A.Saidov, X.Bobobekov, X.Boboyev, A.Madramimov, A.Ziyo, Sh.O'ljayeva, X.Fayziyev singari ko'plab temurshunos, manbashunos, sharqshunos, huquqshunos olimlarning samarali mehnati tufayli Amir Temur shaxsi va uning faoliyatiga doir ko'plab asossiz va noo'rin bahslarga barham berilgani asoslangan;

Amir Temur va uning "Tuzuklari" nafaqat tarixiy-siyosiy manba, balki yoshlarni ma'naviy jihatdan yetuk qilib tarbiyalash va milliy o'zlikni anglashda muhim ekanligi, ayniqsa "Tuzuklar" da bayon etilgan: "Millatning dardlariga darmon bo'lmoq vazifangizdir" yoki "Adolat va ozodlik dastingiz, rahbaringiz bo'lsin" kabi o'gitlar bugungi kunda ham O'zbekiston yoshlari ruhiy tarbiyasini yanada yuksaltirish, ularni xalqparvar va vatanparvar qilib tarbiyalashda zarurligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Amir Temur va uning siyosiy-huquqiy hamda ma'naviy-ma'rifiy qarashlari aks etgan 20 dan ortiq manba, 250 dan ortiq ilmiy adabiyot hamda monografiya, risola, dissertatsiya va konferensiya materiallari aniqlanib, tarixshunoslik va manbashunoslik nuqtayi nazaridan yoritib berilgan;

Amir Temur shaxsiyati, uning faoliyatiga doir turli munosabatda yozilgan asarlar, ijtimoiy tarmoqlarda noxolis tarzda keng yoritilayotgan ma'lumotlarni tanqidiy tahlil etish orqali, ularning asl maqsadlari, xato va kamchiliklari aniqlanib, ularni bartaraf etish yo'llari ko'rsatib berilgan;

Globalashuv sharoitida yoshlar qalbida vatanparvarlik tuygʻusini yanada mustahkamlash, vatanga daxldorlik hissini yuksaltirish va maʼnaviy tahdidlarning oldini olishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Shuningdek, mavzuning tadqiq etilgan jihatlar va kelgusida oʻrganilishi kerak boʻlgan masalalar borasida amaliy takliflar berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyada tarix fani, xususan, tarixshunoslik va manbashunoslik sohasida tan olingan yondashuv, tamoyil hamda usullarning qoʻllanilganligi, manbalardan olingan maʼlumotlar bilan birgalikda qoʻlyozmalar, bir nechta xorijiy tillarda yozilgan adabiyotlardan foydalanilganligi, ularning aksariyati mavjud voqelikka mos kelishi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ijtimoiy-gumanitar fan sohalaridagi tarix, adabiyot, psixologiya, maʼnaviyat, dinshunoslik, milliy istiqloq gʻoyasi, huquqshunoslik, siyosatshunoslik yoʻnalishlarida taʼlim va targʻibot yigʻma materiallarini tayyorlash, shuningdek, milliy oʻzlikni anglash masalalariga oid tadqiqotlarni nazariy jihatdan asoslashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyada umumlashtirilgan maʼlumotlardan oʻzbek milliy davlatchiligi tarixini oʻrganishda, vatan tarixiga oid bilimlarni rivojlantirishda, shuningdek, Oʻzbekistonning barcha taʼlim muassasalari tizimida, ayniqsa harbiy yoʻnalishda taʼlim olayotgan oʻquvchi va talabalar uchun “Oʻzbekiston tarixi”, “Oʻrta asrlar tarixiy”, “Madaniyat tarixi”, “Harbiy tarix”, “Milliy gʻoya” kabi fanlardan darslik, oʻquv qoʻllanma, risola, monografiyalar yaratishda foydalanish imkoniyatini berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Milliy oʻzlikni anglashda Amir Temur omilining tarixiy tahlilini tadqiq etish asnosida kelingan ilmiy xulosa hamda ishlab chiqilgan takliflar asosida:

Amir Temurning yoshlar odob-axloqi, taʼlim-tarbiyasi, huquqiy madaniyati va ularning maʼnaviyatini yanada yuksaltirishga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy, maʼnaviy-maʼrifiy hamda axloqiy qarashlari boʻyicha olingan xulosalardan “Oʻzbekiston tarixi” teleradiokanali koʻrsatuvlari senariylarini tayyorlashda foydalanilgan (“Oʻzbekiston” teleradiokanali davlat muassasasining 2023-yil 26-sentyabrdagi 02-30-1457-sonli maʼlumotnomasi). Taqdim etilgan tarixiy maʼlumotlar Amir Temur shaxsini chuqurroq anglash va uning maʼnaviy-maʼrifiy qarashlarini yoshlar tarbiyasida kengroq foydalanishga xizmat qilgan;

Amir Temur oʻz faoliyatida adolat tamoyillariga koʻra ish olib borganligi, insonlarning ijtimoiy kelib chiqishi, diniy qarashlari yoki irqiga emas, balki uning faoliyatiga qarab baho berganligi, oʻz davlatida ijtimoiy tenglik, diniy bagʻrikenglik va totuvlikka asoslangan jamiyatni qura olgani hamda boshqa maʼlumotlardan Respublika Maʼnaviyat va maʼrifat markazining 2023-yil uchun chora tadbirlar dasturining 111-yoʻnalishida belgilangan “Gʻoya va mafkura masalasi xamda ilm-fan va maʼrifat targʻiboti 15- bandi “Buyuk alloma va mutafakkirlarimiz hayoti va faoliyatini chuqur oʻrganish, boy maʼnaviy va madaniy meroslarini asrab avaylash, ilmiy ijodiy asarlarni keng targʻib qilish” mavzusida targʻibot ishlarini tashkil etish va oʻtkazishda foydalanilgan. (Respublika Maʼnaviyat va maʼrifat markazi huzuridagi ijtimoiy-

ma'naviy tadqiqotlar institutining 2024 -yil 13- apreldagi № 135-sonli ma'lumotnomasi). Taqdim etilgan ma'lumotlar, xususan dissertatsiyada ilgari surilgan takliflar, tavsiya va xulosalar Yangi O'zbekistonda milliy o'zlikni anglashda Amir Temurning siyosiy-huquqiy va ma'naviy-ma'rifiy qarashlarini manbalar va ilmiy tadqiqotlar asosida ochib berishga, hamda demokratik, huquqiy davlat qurish konsepsiyasini yanada mustahkamlash va aholi orasida tolerantlikni targ'ib qilishga xizmat qilgan.

O'zbekiston yoshlari ruhiy tarbiyasini yanada yuksaltirish, ularni xalqparvar va vatanparvar qilib tarbiyalash, milliy qadriyatlarni tiklash hamda milliy o'zlikni anglashni mustahkamlashda Amir Temur ma'naviy-ma'rifiy va bunyodkorlik faoliyatini chuqur o'rganish to'g'risida hamda dissertatsiyada keltirilgan boshqa ma'lumotlardan O'zbekiston Respublikasi Xalqaro Amir Temur xayriya fondini boyitishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Xalqaro Amir Temur xayriya fondining 2024-yil 8-yanvardagi №04-71-sonli ma'lumotnomasi). Taqdim etilgan ma'lumotlar barkamol avlod tarbiyasida Amir Temur qarashlarini yanada ommalashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 20 ta, jumladan, 11 ta xalqaro va 9 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 3 ta risola, 3 ta monografiya, 30 ta ilmiy ish nashr etilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 10 ta (7 ta Respublika va 3 ta xorijiy jurnal) maqolalar e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 140 betni tashkil qiladi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi qisman yoritilgan, ishning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning amaliyotga joriy qilinishi va aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiya tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Amir Temur shaxsining o'rganilishiga doir nazariy-metodologik qarashlar va mavzu tarixshunosligi**" deb nomlangan birinchi bobida mavzuga doir nazariy-metodologik qarashlar, manbalarning ko'lami, tadqiqot geografiyasi, adabiyotlar va tadqiqot ishlarining salmog'i, mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan chop etilgan monografiya, maqola, risola, to'plam va esdaliklar, himoya qilingan dissertatsiya ishlari va ilmiy ekspeditsiya natijalarining tarixshunoslik tahlili ochib berilgan.

Ushbu bobning "**Sohibqiron va uning faoliyatini o'rganilishi bilan bog'liq nazariy-metodologik qarashlar**" deb nomlangan birinchi paragrafida Amir Temur faoliyatining turli davrlarda yoritilishiga doir nazariy qarashlar va metodologik

yondashuvlar, tadqiqotchilar o'rtasidagi munozaralar, bu boradagi davlat siyosati tahlil etilgan.

Tarixiy manbalardan ma'lumki, o'zbek milliy davlatchiligi Amir Temur boshqaruvi davrida o'zining yuqori bosqichiga ko'tarilgan. Uning hukmronligi davrida Movarounnahrda ilm-fan, madaniyat va san'at rivoj topgan. Boy madaniy qadriyatlar yaratilib, mintaqada ikkinchi Renessansga poydevor qo'yilgan. Shu bois, istiqlol yillarida Amir Temurning hayoti va faoliyatini tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilib, bir qator farmon va qarorlar³ qabul qilingan.

Sovet davrida Amir Temur shaxsiyati va uning faoliyatiga bir yoqlama, noxolis va g'ayriilmiy baho berilgan edi. O'sha davr hukmron mafkurasining, hamda buyuk davlatchilik shovinizmi ta'siri doirasida turli kitoblarda, darslik va ensiklopediyalarda, ommaviy axborot vositalarida ataylab noto'g'ri, asosan qoralovchi ma'lumotlar ko'plab chop etildi, targ'ib-u tashviq qilindi⁴.

Olib borilgan tadqiq va tahlillar natijasida, buning sababini, ya'ni Amir Temur shaxsiga nisbatan bo'lgan salbiy munosabat shakllanishining quyidagi omillari mavjudligini ko'rsatish mumkin.

Birinchi omil, Amir Temur davridan to mustaqillikka qadar ko'plab salbiy munosabatda yozilgan yozma manbalar.

Ikkinchi omil, Amir Temurning harbiy yurishlari bilan bevosita bog'liq, ya'ni uning mo'g'ul bosqinchilari, Usmonli turk sultoni hamda Eron. Arab, Hindiston va Turkiya singari mamlakat hukmdorlari ustidan qozongan g'alabasi.

Yuqorida keltirilgan omillarni mantiqan to'g'ri ekanligining dalili sifatida Amir Temur va temuriylar davrida yashagan, Sohibqiron bilan yuzma yuz uchrashgan bavariyalik sayyoh Iogann Shiltbergerning "Yevropa, Osiyo va Afrika bo'ylab sayohati" tarixiy solnomasini hamda tarixchi Ibn Arabshohning "Ajoyib al-maqdur fi axbori at-Taymur" nomli asarini misol tariqasida keltirish mumkin.

Manbalarda bayon etilishicha, I. Shiltberger va Ibn Arabshoh asarlarida keltirilgan ma'lumotlarning aksariyati uchinchi shaxslar tomonidan aytilgan ma'lumotlar asosida bayon etilgan. Masalan, I. Shiltberger shaxsan o'zi bu voqealarning guvohi bo'lmagan, balki bu haqida u 1396-yildan 1427-yilgacha bo'lgan davrda Yaqin Sharqda bo'lgan vaqtida uchinchi shaxslardan bilib olgan. Ibn Arabshoh esa o'z asarining kirish qismida: "Men bu qissadan o'zim ko'rganlarimni eslab, bu to'g'risida boshqalardan rivoyat topganlarimni bayon qilishga irodat etdim", – deb yozib qoldirgan.

Amir Temur faoliyati to'g'risida yozilgan noxolis va asossiz ma'lumotlarga nisbatan fransuz olimi L.Keren⁵ va Lui Matyo Langle⁶, ozarbayjonlik olim T.Atayev⁷ va

³ Amir Temur tavalludining 660 yilligini niшонlash tўғrisida`gi Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори, 1994 йил 29 декабрь // Халқ сўзи. 1994 йил, 30 декабрь; Ўзбекистон Республикаси Президентининг "1996 йилни Amir Temur йили деб эълон қилиш тўғrisida"ги Фармони. Тошкент, 1995 йил 26 декабрь // Халқ сўзи. 1995 йил, 27 декабрь; Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Темурийлар тарихи давлат музейини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғrisida"ги қарори. Тошкент, 1996 йил 14 март // Халқ сўзи. 1996 йил, 15 март; "Amir Temur" орденини таъсис этиш тўғrisida Ўзбекистон Республикасининг 1996 йил 26 апрель қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий мажлисининг Ахборотномаси, 1996 йил, 5-6-сон, 63-модда.

⁴ Мухаммад Али. Amir Temur номининг турлича шаклларда берилишига доир // Республика илмий анжумани материаллари. Темурийлар тарихи давлат музейи. – Т., 2005. – Б. 37.

⁵ Саидов А. Люсьен Керен-темурушунос олим. –Т.: Чўлпон номидаги НМИУ, 2018. – Б. 27.

⁶ Саидов А. Темур тузуқлари муҳим тарихий-ҳуқуқий манба // Сохибқирон юлдузи журнали, 2017. – №1.(27) – Б. 21-22.

⁷ Атаев Т. Феномен Амира Темура. – Т.: «Билим ва интеллектуал салоҳият», 2019. – С. 94.

boshqalar o‘z asarlarida asosli javob qaytargan va buning haqiqiy sabablarini ochib beradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sovet davrida yozilgan ilmiy ishlarda Amir Temur davridagi siyosiy-iqtisodiy jarayonlar, ayniqsa harbiy jarayonlar ko‘proq yoritilgan bo‘lib, Amir Temur shaxsiyati, ma‘naviyati, ichki dunyosi, xususan uning o‘ziga xos fazilatlari, ruhiyati, ayniqsa, odob – axloq borasidagi qarashlari to‘liq ochib berilmagan. Ayniqsa, Amir Temurning diniy qarashlari, dinga munosabati, diniy bag‘rikengligi, ya‘ni uning yuksak ma‘naviyatini ko‘rsatuvchi omillar yetarli darajada tadqiq va tahlil etilmagan. Dissertant fikriga ko‘ra, bunga sabab sovet davrida yuritilgan mafkuraviy siyosat o‘z ta‘sirini ko‘rsatgandir.

Afsuski, Amir Temur shaxsiga va uning faoliyatiga nisbatan bo‘lgan salbiy munosabat, hattoki uning ismini noto‘g‘ri, ya‘ni “Tamerlan”, “Tamburleyn”, “Temur oqsoq” kabi atash XXI asrda ham davom etmoqda. Bunday salbiy holatni fransuz temurshunosi Jan Pol Runing “Tamerlan”, suriyalik tarixchi olim Muhammad Amin Shayxuning “Haqiqatu Taymurlang al-azim” va boshqa asarlarda guvohi bo‘lish mumkin. Vaholanki, Rui Gonsales de Klavixoning o‘z kitobida, bundan olti yuz yil avval, ayni shu mavzuga e‘tibor qaratib, “... Temurbekning haqiqiy ismi Tamurbek, zinhor biz atab yurganday “Tamorlan” emasdir”⁸, – deb yozadi.

Demak, yuqorida keltirilgan fikr – mulohazalarga jiddiy e‘tibor qaratgan holda, ushbu masalaga bag‘ishlab xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazish, Sohibqiron ismini “Amir Temur” shaklida to‘liq olish va jami axborot vositalarida bir xil berilishiga, ilmiy muomalaga kiritilishiga erishish lozim⁹.

Mazkur bobning ikkinchi paragrafi “**Amir Temur faoliyatiga doir mahalliy tadqiqotlar tarixshunosligi**”, deb nomlangan bo‘lib, mavzu doirasida bajarilgan mahalliy tadqiqotlar tarixshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilingan.

Tarixshunoslik tahlilidan avval, ushbu ko‘plab izlanishlarni yozilishiga asos bo‘lgan ko‘plab manbalarni qayta tarjima qilinishi, to‘ldirilishi, mafkuraviy jihatdan tozalanishini ta‘kidlab o‘tish darkor. Xususan, ushbu tarixiy yozma manbalarga G‘iyosiddin Ali ibn Jamol al-Islom Yazdiyning “Ro‘znomai g‘azavoti Hindiston”¹⁰, Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”¹¹, Sharafuddin Ali Yazdiyning¹² “Zafarnoma”, sharqshunos olim Shahobiddin Abdulloh ibn Lutfulloh ibn Abdurashid al-Havofiy – Hofizu Abro‘ning¹³ “Majmuayn Hofizu Abro‘ va Zayli Zafarnomai Shomiy”, eronlik tarixchi Muiniddin Natanziyning¹⁴ “Muntaxab ut-tavorixi Muiniy”, Kamoliddin

⁸ Руи Гонсалес де Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд ко дворцу Тимура (1403-1406). Перевод со староиспанского, предисловие и комментарии И.С.Мироковой. – Москва: Наука, 1990. – С. 69.

⁹ Мухаммад Али. Амир Темур номининг турлича шаклларда берилишига доир // Республика илмий анжумани материаллари. Темурийлар тарихи давлат музейи. 2- китоб. – Т., 2005. – Б. 37-40.

¹⁰ Дневник похода Тимура в Индию Гийас аддина Али. Изд. Л.А.Замина под редакцией В.В.Бартольда. 1915. – С. 231.; Гийасаддин Али. Дневник похода Тимура в Индию. Перевод, предисловия и прим. А.А.Семенова. – М., 1958. – С. 207.

¹¹ Шомий Низомиддин. Зафарнома. Қайта нашр / Форс тилидан ўгирувчи Ю.Ҳакимжонов; таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва маъсул муҳаррир А.Ўринбоев; Ҳофизи Абрўнинг “Зафарнома”га ёзган “Зайл”и (“Илова”)ни форсийдан ўгирувчи ҳамда унинг изоҳлари ва географик номлар изоҳини тузувчи О.Бўриев. – Т.: Фан, 2019. – 544 б.

¹² Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. 1-китоб. Мукаддима. // Форс тилидан таржима, сўз боши ва илмий изоҳлар муаллифи О.Бўриев. – Т.: Фан, 2020. – 284 б.

¹³ Ҳакимжонов Ю. Хофизи-Абрў: Зайли Зафарномаи Шомий / Низомиддин Шомий. Зафарнома. Форс тилидан ўгирувчи; таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва маъсул муҳаррир А.Ўринбоев. – Т., 1996. – Б. 380-528.

¹⁴ Мўъиниддин Натанзий. Мунтахаб ут-таворихи Муиний (Муинийнинг сайланма тарихи). Форс тилидан тарж., сўз боши ва изоҳлар муаллифи Ф. Каримий; маъсул муҳаррир А.Ўринбоев. – Т.: Ўзбекистон, 2011. – 264 б.

Abdurazzoq ibn Mavlon Jaloliddin Is'hoq as-Samarqandiyning¹⁵ “Matlai sa'dayn va majmai bahrayn”, tarixchi Ibn Arabshohning¹⁶ “Ajoyib al – makdur fi axbori at-Taymur”, Ispaniya elchisi Rui Gonsales de Klavixoning¹⁷. “Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi” hamda Sohibqironning hayoti va ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy qarashlarini o'zida aks etgan “Temur tuzuklari”¹⁸ kabilarni misol keltirish mumkin.

Shu o'rinda, O'zbekistonda mustaqillikka qadar va istiqlol yillarida temurshunoslik rivojiga katta hissa qo'shgan G.A.Pugachenkova, P.Zohidov, L.I Rempel, I.Mo'minov, R.Mukminova, B.V.Lunin, A.Ahmedov, B.Ahmedov, U.Uvatov, T.Fayziyev, A.Muhammadjonov, H.Ziyoyev, D.Yusupova, O.Bo'riyev, E.V.Rtveladze, A.O'rinboev singari qator olimlarning nomini e'tirof etish lozim¹⁹. Ular tomonidan

¹⁵ Абдураззоқ Самарқандий. Маглаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн” (Икки саодатли юлдузнинг чиқиш ва икки денгизнинг қўшилиши асари. – Тошкент, 1969. – 463 б.

¹⁶ Ибн Арабшох. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур (Темур тарихида тақдир ажойиботлари). Сўз боши, араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи У.Уватов. Маъсул мухаррир А.Ўринбоев. I- китоб. – Т.: “Меҳнат”, 1992. – 328 б.; Ибн Арабшох Амир Темур тарихидан. У.Уватов таржимаси / Амир Темур ва Улуғбек замондошлари хотирасида... – Б. 24-35; Уватов У. Соҳибқирон араб муаррихлари нигоҳида. – Т.: “Шарқ”, 1996. – 160 б.

¹⁷ Руи Гонсалес де Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд ко дворцу Тимура (1403-1406). Перевод со староиспанского, предисловие и комментарии И.С. Мироковой. – Москва: Наука, 1990. – С. 69.; Руи Гонсалес де Клавихо. Самарқандга – Амир Темур саройига саёхат кундалиги (1403-1406 йиллар). Маъсул мухаррир: Мухаммад Али; сўз боши ва изоҳлар муаллифи М.Сафаров; тарж.О.Тоғасев. – Т.: “Ўзбекистон”, 2010. – 264 б.

¹⁸ Темур тузуклари. Таҳрир хайъати: Б.Абдухалимов ва бошқ. Форсча матндан А.Соғуний ва Ҳ.Кароматов тарж. Халқаро Амир Темур жамғармаси, ЎЗР ФА Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти. – Т.: Ўзбекистон, 2011. – 184 б.

¹⁹ Пугаченкова Г.А., Рempel Л.И. Выдающиеся памятники архитектуры Узбекистана. Памятники времени Тимура. – Т., 1958. – С. 163-167.; Автор тот же. Самарканд. Бухара. По древним памятникам Самарканда и Бухары. Изд.второе, дополнение – М., 1968. – 203 с.; Зоҳидов П.Ш. Мавзолей Биби-Ханым / Архитектурное наследие Узбекистана. – Т., 1960. – С. 60-74.; О'sha muallif. Темур даврининг меъморий кахқашони. – Т.: Шарқ, 1996. – 192 б.; О'sha muallif. Буюк меъморий даҳо кароматлари // Амир Темур илм-фан ва маданият хомийси” мавзuida ўтказилган 2-Халқаро илмий амалий конференция материаллари. – Т., 1999. – Б. 50-65.; О'sha muallif. Буюк зафарлар туғроси. – Т.: Мерос, 2015. – 52 б.; Рempel Л.И. Архитектурный орнамент Узбекистана / История развития и теории построения. – Т., 1961; О'sha muallif. Темурийлар даври санъатининг эстетик асослари (Миниатюра санъати материаллари) // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, 1969. – № 8-9. – Б. 12-19.; Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. (Ёзма манбалар маълумоти асосида). – Т.: Фан, 1968. – 51 б.; О'sha muallif. Амир Темур ибн Тарағай Баҳодир. – Т.: Камалак, 1992. – Б. 76.; О'sha muallif. Темурийлар даврида Ўрта Осиё санъати тараққиётининг тарихий шарт-шароити хақида // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, 1969. – № 8-9. – Б. 3-11.; Мукминова Р.Г. Ремесло и торговля. История Самарканда. – Т.1. – Т., 1969. – С. 195-212.; О'sha muallif. Разширение торговых взаимосвязей при Амуре Темуре / Амир Темур ва унинг дунё тарихидаги ўрни – Самарқанд, 1996. – Б. 13-16.; О'sha muallif. Социально-экономическая жизнь в Мавераннахре времени Амира Темура / Амир Темур. Жизнь и общественно-политическая деятельность. – Т.: Университет, 1999. – С. 62-126.; Лунин Б.В. История, культура и искусство времени Тимуридов в советской литературе (библиографический указатель) // Общественные науки Узбекистана, 1969. – № 8-9. – С. 100-145; О'sha muallif. Историографические исследования в Узбекистане: Первые итоги, состояние, задачи // Общественные науки Узбекистана, 1975. – № 8. – С. 69-77; О'sha muallif. Историография эпохи Амира Тимура // Амир Тимур в мировой истории. – Т.: Шарқ, 1996. – С. 89-97.; Аҳмедов А. Амир Темур. Уйдирма ва хақиқат // Фан ва турмуш, 1990. – № 8. – Б. 15-16; – № 9. – Б. 8-9; – № 10. – Б. 20-22.; О'sha muallif. Амир Темур хақида хақиқат / Сомон йўли: Адабий- тарихий мажмуа. – Т.: “Камалак”, 1991. – Б. 24-43.; О'sha muallif. Амир Темур Кўрагон. Зафар йўли. Таржимаи хол. – Т.: “Нур”, 1992. – 112 б.; Аҳмедов Б. Ўзбекистон халқлари тарихи манбалари. – Т.: “Ўқитувчи”, 1991. – 214 б.; О'sha muallif. Амир Темур. Тарихий роман. – Т.: Халқ мероси, 1995. – 640 б.; О'sha muallif. Соҳибқирон Темур. (Ҳаёти ва ижтимоий-сиёсий фаолияти). – Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1996. – 136 б.; О'sha muallif. Амир Темурни ёд этиб. – Т.: “Ўқитувчи”, 1996. – 226 б.; Ибн Арабшох. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур (Темур тарихида тақдир ажойиботлари). Сўз боши, араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи У.Уватов. Маъсул мухаррир А.Ўринбоев. I- китоб. – Т.: “Меҳнат”, 1992. – 328 б.; Уватов У. Амир Темур билан фозиллар // Тафаккур, 1996. – №2(7). – Б. 79-86.; Ибн Арабшох Амир Темур тарихидан. У.Уватов таржимаси / Амир Темур ва Улуғбек замондошлари хотирасида. –Тошкент, 1996. – Б. 24-35; О'sha muallif. Амир Темур ва мамлуклар // Шарқшунослик: илмий тўплам, 1996. №6. – Б. 60-74.; О'sha muallif. Соҳибқирон араб муаррихлари нигоҳида. – Т.: Шарқ, 1997. – 158 б.; Файзиев Т. Темурий маликалар. – Т.: Ф.Фуллом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. – 40 б.; О'sha muallif. Темурийлар шажарасига масаласига доир // Амир Темур ва унинг жаҳон тарихидаги ўрни: Халқаро конференция тезислари, (1996 йил 23–26

chop etilgan ilmiy nashrlarda Sohibqiron Amir Temur saltanati tarixi turli yoʻnalishlarda keng yoritib berilgan.

Bevosita davrlar kesimida oʻrganilayotgan mavzu doirasidagi tadqiqotlar tahliliga eʼtibor qaratsa, birinchi bosqichda – Amir Temur shaxsini oʻrganishda R.Mukminova, B.Ahmedov, A.Ahmedov, A.Muhammadjonov, T.Fayziyev, U.Uvatov, D.Yusupova, O.Boʻriyev, Gʻ.Karimov singari olimlar faoliyati²⁰ ahamiyatlidir.

октябрь). – Тошкент, 1996. – Б. 22-25; Oʻsha muallif. Соҳибқироннинг сўнги кунлари // Сомон йўли: Адабий тарихий мажмуа. – Тошкент, 1991. – Б. 89–97; Oʻsha muallif. Соҳибқирон Amir Temurning 1399 йили Султонияга боришининг сабаблари / Amir Temur сабоқлари: 1. Amir Temur va inson manfaatlari: Xalqaro ilmiy konferentsiya materiallari. – Тошкент, 1997. – Тошкент, 1998. – Б. 40- 44.; Мухаммаджонов А.Р. Темур ва темурийлар салтанати. – Тошкент: Қомуслар Бош тахририяти, 1996. – 150 б; Oʻsha muallif. Соҳибқирон мамлакат ободонлиги йўлида // Фан ва турмуш. – Тошкент.-1996. – № 4. – Б. 10-14. Oʻsha muallif. Amir Temur davlatida obodonchilik va qurilish ishlari tarixidan // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. – Тошкент.- 1996. – № 11-12. – Б. 59-63.; Зиёев Ҳ. Amir Temur davlatining mafkurasi // Мулоқот, 1995. – № 9-10. – Б. 37-42.; Oʻsha muallif. Буюк Amir Temur saltanati va uning takdiri. – Т.: Маънавият, 2008. – 136 б.; Юсупова Д. Наука. Образование. Медицина / Amir Temur в мировой истории. – Париж, 1996. – С. 109–119; Oʻsha muallif. Развитие образования в эпоху Амира Темура и Темуридов // ОНУ, 1996. – № 7–10. – С. 106–109.; Oʻsha muallif. Темур ва Темурийлар даврида маориф // Amir Temur va uning jahon tarixidagi ўрни: Xalqaro konferentsiya tezislari, (1996 йил 23-26 октябрь). – Тошкент, 1996. – Б. 68–69; Oʻsha muallif. Вопросы науки и культуры эпохи Темуридов в трудах Хондамира // Материалы международной научной конференции. "Расцвет науки, культуры и образования в эпоху Тимуридов" (штаб-квартира ЮНЕСКО г. Париж 22 апреля, 1996). – Ташкент –Париж, 1996. – С. 28–36. (рус.), – С. 73–81. (франц.); Oʻsha muallif. Amir Temur saltanati davlat tuzilishi masalasiga doir // Amir Temur сабоқлари: 1. Amir Temur va inson manfaatlari: Xalqaro ilmiy konferentsiya materiallari (Тошкент, 1997) / Тахрир хайъати: Б.Аҳмедов ва бошқалар. – Тошкент: – Шарқ, 1997. – Б. 29–33; Oʻsha muallif. “Маъасир ал-мулук” Хондамира – источник о деяниях государей эпохи Темура и Темуридов // Ўзбекистон в средние века: История и культура (Доклады межд. конф.) – Т., 2003. – С. 183–189.; Oʻsha muallif. Amir Temur va Темурийлар даврида таълим ҳолати. Республика илмий амалий конференция материаллари. – Т., 2021. – Б. 5-10.; Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё (тарихий-географик лавҳалар). – Т.: “Ўзбекистон”, 1997. – 186 б.; Oʻsha muallif. Клавихо “Қундалиги”да Мовароуннахр тавсифи / Республика илмий анжумани материаллари. 2-китоб. – Т., 2005. – Б. 41-55; Oʻsha muallif. “Бобурнома”даги топонимлар изоҳли луғати. – Т.: “Наврўз”, 2015.; Oʻsha muallif. Шарафуддин Али Яздий “Зафарнома” асарининг Ўзбекистонда ўрганилиши / “Amir Temur va temuriylar davridagi ilm-fan va madaniyat rivojining jahon tamaddunidaги ўрни” Республика илмий-амалий конференция материаллари. 9-китоб. – Т.: “Mashhur-Press”, 2017. – Б. 29-36.; Ртвеладзе Э.В. Amir Temur va Xitoy // Фан ва турмуш, 1998. – №4. – Б. 10-11.; Ртвеладзе Э.В., Аҳмедов А. Amir Temur davlati va uning boshkaruv mexanizmi / Ўзбекистон davlatчилиги тарихи очерклари. – Т., 2001. – Б. 93-103.; Ртвеладзе Э.В. Ўзбекистоннинг тарихий ўтмиши. Тўлдирилган, иккинчи нашри. – Т., 2009. – 240 б.; Ўринбоев А. Зафарнома / Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. – Т., 2002. – Б. 692-693.; Oʻsha muallif. Низомиддин Шомиий ва унинг “ Зафарнома” асари / Ўзбекистон тарихи: Хрестоматия. 2-жилд. – Т., 2014. – Б. 138-140.

²⁰ Мукминова Р.Г. Темур ва Улуғбек даврида Мовароуннахрда ижтимоий-иқтисодий ҳаёт // Темур ва Улуғбек даври тарихи. – Т., 1996. – Б. 113 – 154.; Oʻsha muallif. Темурий ҳукмдорлар // Ёш куч, 1991. – № 6. – Б. 22-28.; Oʻsha muallif. Социально-экономическая жизнь в Мавераннахре времени Амира Темура / Amir Temur. Жизнь и общественно-политическая деятельность. – Т.: Университет, 1999. – С. 62-126.; Аҳмедов Б. Ўзбекистон халқлари тарихи манбалари. – Т.: “Ўқитувчи”, 1991. – 214 б.; Oʻsha muallif. Amir Temur. Тарихий роман. – Т.: Халқ мероси, 1995. – 640 б.; Oʻsha muallif. Соҳибқирон Темур. (Ҳаёти ва ижтимоий-сиёсий фаолияти). – Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1996. – 136 б.; Oʻsha muallif. Amir Temurni ёд этиб. – Т.: “Ўқитувчи”, 1996. – 226 б.; Аҳмедов А. Amir Temur. Уйдирма ва ҳақиқат // Фан ва турмуш, 1990. – № 8. – Б. 15-16; – № 9. – Б. 8-9; – № 10. – Б. 20-22; Oʻsha muallif. Amir Temur ҳақида ҳақиқат / Сомон йўли: Адабий- тарихий мажмуа. – Т.: “Камалак”, 1991. – Б. 24-43; Oʻsha muallif. Amir Temur Кўрагон. Зафар йўли. Таржимаи хол. – Т.: “Нур”, 1992. – 112 б.; Мухаммаджонов А. Темур ва темурийлар салтанати. Тарихий очерк. – Т.: Қомуслар Бош тахририяти, 1994.; Oʻsha muallif. XIV аср – XV асрларда ирригация ва ер эгаллиги тарихидан // Amir Temur va uning jahon tarixidagi ўрни: Xalqaro konferentsiya tezislari, (1996 йил 23-26 октябрь). – Тошкент, 1996. – Б. 44–45.; Файзиев Т. Темурий маликалар. – Т.: F.Фуллом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. – 40 б.; Oʻsha muallif. Темурийлар шажараси масаласига доир // Amir Temur va uning jahon tarixidagi ўрни: Xalqaro konferentsiya tezislari, (1996 йил 23–26 октябрь). – Тошкент, 1996. – Б. 22-25.; Oʻsha muallif. Соҳибқироннинг сўнги кунлари // Сомон йўли: Адабий тарихий мажмуа. – Тошкент, 1991. – Б. 89–97.; Oʻsha muallif. Соҳибқирон Amir Temurning 1399 йили Султонияга боришининг сабаблари // Amir Temur сабоқлари: 1. Amir Temur va inson manfaatlari: Xalqaro ilmiy konferentsiya materiallari. – Тошкент, 1997. – Тошкент, 1998. – Б. 40-44.; Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур (Темур тарихида тақдир ажойиботлари). Сўз боши, араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи У.Уватов. Маъсул муҳаррир А.Ўринбоев. I- китоб. – Т.: “Меҳнат”, 1992. – 328 б.; Уватов У. Amir Temur билан фозиллар // Тафаккур, 1996. – №2 (7). – Б. 79-86.; Ибн Арабшоҳ Amir Temur тарихидан. У.Уватов таржимаси / Amir Temur va Улуғбек замондошлари хотирасида. –Тошкент, 1996. – Б. 24–35.; Oʻsha muallif.

Ushbu davr tadqiqotlarini sarhisob qilinsa, bu davrdagi asosiy faoliyat A.Temur va Temuriylar faoliyatini qayta tahlil qilish, davrga oid manbalarni o'zbek tiliga tarjima qilish va izohlash, sovet davrida ushbu yo'nalishda yo'l qo'yilgan mafkuraviy, uslubiy va talqindagi xatoliklarni to'g'rilash, A.Temur shaxsini dunyo miqyosida baholanishini tanqidiy o'rganish, shuningdek, darsliklar va adabiyotlarni mustaqillik yondashuvi asosida qayta yozishga qaratildi. Shu sababli, birinchi davrda A.Temur shaxsi bo'yicha tadqiqot olib borgan olimlarning aksariyat qismi tarixchi-manbashunos, tilshunos, sharqshunoslardan iborat bo'ldi.

1997-yildan boshlangan *ikkinchi bosqichda* Amir Temur shaxsi va uning ma'naviy merosini o'rganishda N.G'oyibov²¹, A.Ziyoyev²², Sh.O'ljayeva²³, A.Saidov²⁴,

Амир Темур ва мамлуклар // Шарқшунослик: илмий тўплам, 1996. №6. – Б. 60-74.; O'sha muallif. Сохибқирон араб муаррихлари нигоҳида. -Т.: Шарқ, 1997. -158 б.; Юсупова Д. Наука. Образование. Медицина / Амир Темур в мировой истории. – Париж, 1996. – С. 109–119; O'sha muallif. Развитие образования в эпоху Амира Темура и Темуридов // ОНУ, 1996. – № 7–10. – С. 106–109.; O'sha muallif. Темур ва Темурийлар даврида маориф // Амир Темур ва унинг жаҳон тарихидаги ўрни: Халқаро конференция тезислари, (1996 йил 23-26 октябрь). – Тошкент, 1996. – Б. 68–69.; O'sha muallif. Вопросы науки и культуры эпохи Темуридов в трудах Хондамира // Материалы международной научной конференции "Расцвет науки, культуры и образования в эпоху Тимуридов" (штаб-квартира ЮНЕСКО г. Париж 22 апреля, 1996). – Ташкент–Париж, 1996. – С. 28–36.; O'sha muallif. Амир Темур салтанати давлат тузилиши масаласига доир // Амир Темур сабоклари: 1. Амир Темур ва инсон манфаатлари: Халқаро илмий конференция материаллари (Тошкент, 1997) / Таҳрир ҳайъати: Б.Аҳмедов ва бошқалар. – Тошкент: Шарқ, 1997. –Б.29-33.; Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё (тарихий-географик лавҳалар). – Т.: “Ўзбекистон”, 1997. – 186 б.; O'sha muallif. Клавиho “Кундалиги”да Мовароуннаҳр тавсифи / Республика илмий анжумани материаллари. 2-китоб. – Т., 2005. – Б. 41-55; O'sha muallif. “Бобурнома”даги топонимлар изохли луғати. – Т.: “Наврўз”, 2015.; O'sha muallif. Шарафуддин Али Яздий “Зафарнома” асарининг Ўзбекистонда ўрганилиши / “Амир Темур ва темурийлар давридаги илм-фан ва маданият ривожининг жаҳон тамаддунидаги ўрни” Республика илмий-амалий конференция материаллари. 9-китоб. – Т.: “Mashhur-Press”, 2017. – Б. 29-36.; Каримов Ф. “Мунтахаб ат-таворихи Муиний” асаридаги турк-мўғул ҳарбий атамалари // Шарқшунослик: илмий тўплам. – Тошкент, 1996. – № 6. – Б. 67-74.; O'sha muallif. Муъиниддин Натанзий. “Мунтахаб ут-таворих”дан (Форс тилидан таржима) // Амир Темур ва Улуғбек замондошлари хотирасида. Б.Аҳмедов, У.Уватов, Ф.Каримов, А.Зиёев, Д.Юсупова, О.Жалилов, А.Ҳабибуллаев, М.Ҳасанов. – Т. 1996. – Б. 135 – 178.

²¹ Гойибов Н. Покистон олимлари ва ёзувчилари Амир Темур даври маданий ҳаёти ҳақида ... – Б. 37-50.; O'sha muallif. Амир Темур давлати сиёсатининг асоси ... – Б. 20-30.; O'sha muallif. Амир Темур маънавияти. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат, 2001. – 48 б.

²² Зиёев А. Давлати бор эл қудрати бор эл // Тафаккур, 1999. – № 1 (14). – Б. 36-46.; O'sha muallif. Ўзбек давлатчилиги тарихини ўрганиш манбашунослиги // O'zbekiston tarixi, 1999. – № 1. – Б. 35-44.; O'sha muallif.; Ўзбек давлатчилиги тарихи... – 368 б.; O'sha muallif. XVI аср ўзбек давлатчилиги бошқарувиго доир // Амир Темур сабоклари: 3. Амир Темур ва унинг марказлашган давлат тузиш йўлидаги буюк хизматлари: Илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент, 2001. – Б. 10-15.; O'sha muallif. Амир Темур давлатида аёл мавқеи: (Сароймулкхоним ҳаёти ва фаолияти) // O'zbekiston tarixi, 2001. – № 2. – Б. 25-33.

²³ Ўлжаева Ш.М. Амир Темур ва темурийлар даврида ижтимоий ҳимоя // Қонун ҳимоясида. – Тошкент, 2001. – № 1-2. – Б. 25-26.; O'sha muallif. Сохибқироннинг бир фармони ҳақида // Давлат ва ҳуқуқ. – 2001. – № 1-2. – Б. 68-69.; O'sha muallif. Амир Темур ва Темурийлар даврида ижтимоий ҳимоя // Қонун ҳимоясида, 2002. № 9-10 (81-82). – Б. 25-26.; O'sha muallif. Амир Темур ва темурийлар даврида жиноят ва жазо // Қонун ҳимоясида. – Тошкент, 2003. – № 4. – Б. 21-22.; O'sha muallif. Амир Темур ва темурийлар даврида ижтимоий муносабатлар ҳамда дипломатик алоқалар тарихидан // Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар: тарих ва ҳозирги замон: Республика илмий-амалий анжуман материаллари. – Тошкент, 2003. – Б. 69-72.; O'sha muallif. Амир Темур ва темурийлар даврида миллий давлатчиликнинг ривожланиши // Ўзбекистон давлатчилиги-тараққиёт босқичлари: Республика илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2003. – Б. 29-31.; O'sha muallif. Сохибқирон вазирларни қандай танлаган? // Ҳаёт ва қонун, 2003. – № 3. – Б. 45.; O'sha muallif. Амир Темурни англаш – ўзликни англаш // Мулоқот, 2004. – № 5. – Б. 21 – 22.; O'sha muallif. Кадрлар танлаш масаласида Амир Темур меросининг аҳамияти // Мустақиллик йилларида ижодий кадрлар тайёрлашнинг долзарб масалалари: Республика илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2004. – Б. 31-33.; O'sha muallif. Амир Темур давлат бошқаруви. – Тошкент: Академнашр, 2017. – 248 б.

²⁴ Саидов А.Х. Амир Темур ва Испания (Муқаддима ўрнида) // Руи Гонсалес де Клавиho. Буюк Амир Темур тарихи: (1403-1406). – Тошкент, 2006. – Б. 3-10.; O'sha muallif. Амир Темур – эхтиромга сазовор, илҳомбахш сиймо // Шарқ юлдузи, 2009. – № 3. – Б. 13-17.; O'sha muallif. Амир Темур сиймосининг Ғарб адабиёти ва санъати намуналаридаги ўзига хос талқинлари хусусида // Темурийлар даври: тадқиқотлар ва муаммолар: Темурийлар даврини ўрганишнинг умумбашарий аҳамияти: Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Тошкент, 2014. – Б. 105-118.; O'sha muallif. Георг Генделнинг “Амир Темур” операси // Санъат, 2014. – № 4. – Б. 36-37.; O'sha muallif. “Амир Темур”

операси // Санъат, 2014. – № 4. – Б. 36-37.; О‘sha muallif. Амир Темур сиймоси – жаҳон операнавислигида // Жаҳон адабиёти, 2015. – № 4-5. – Б. 163-166.; О‘sha muallif. Амир Темур олгин ҳайкалчасининг ижодкори // Мозийдан садо, 2016. – № 4 (72). – Б. 38-39.; О‘sha muallif. Соҳибқирон бобомизнинг жаҳон тарихидаги ўрни-бекиёс ва улғввор // Тошкент оқшоми, 2016.; О‘sha muallif. Амир Темур ва Франция. – Тошкент: Аргументы и факты, 2016. – 559 б.; О‘sha muallif. Европа шарқшунослиги ҳамда Амир Темур ва Темурийлар тарихи // Темурийлар даврида илм-фан ва маданият: халқаро илмий конференция тезислари. – Тошкент, 2017. – Б. 15-19.; О‘sha muallif. Амир Темурнинг давлатдорлик иқтидорини ўрганишнинг моҳияти // Амир Темур ва темурийлар давридаги илм-фан ва маданият ривожининг жаҳон тамаддунидаги ўрни: Республика илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2017. – Б. 73-76.; О‘sha muallif. Люсьен Керен темуршунос олим. – Тошкент, Чўлпон, 2018. – 300 б.; О‘sha muallif. Керен Л. Амир Темур – ўзбек ва француз олимлари нигоҳида // “Водийнома”, 2018. № 3 (10). – Б. 19-26.

²⁵ Бўриёв О. Амир Темур ва темурийлар даврида этник жараёнлар // Амир Темур ва темурийларнинг жаҳон маданиятида тутган ўрни. – Тошкент, 2006. – Б. 58-65.; О‘sha muallif. Қарши – Амир Темур таянган шахар // Амир Темур ва темурийларнинг жаҳон маданиятида тутган ўрни. – Тошкент, 2006. – Б. 145-147.; О‘sha muallif. Амир Темур ва темурийлар даври этномаданий анъаналарида инсонпарварлик ғоялари // Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида / ҚМШИ илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Қарши, 2007. – Б. 76-80.; О‘sha muallif. Амир Темур даврида Ўрта Осиё элатлари // Соҳибқирон юлдузи, 2012. – № 1. – Б. 80-96.; О‘sha muallif. Соҳибқирон Амир Темур эъзозлаган удумлар // Қарши ДУ хабарлари, 2012. – № 2. – Б. 37-43.; О‘sha muallif. Амир Темур салтанатида ёш авлод тарбияси удумлари // Ўзбек халқининг миллий фольклор санъати ва этномаданий қадриятлари: Илмий тўплам. – Тошкент, 2013. – Б. 14.; О‘sha muallif. Амир Темурнинг Шарқ Фарб тарихидаги ўрни // Турон тарихи, 2014. – № 3-4. – Б. 24-29.; О‘sha muallif. Азиз авлиёларни эъзозлаган Амир Темур // Соҳибқирон юлдузи, 2015. – № 4. – Б. 4-11.; О‘sha muallif. Азиз авлиёларни эъзозлаган Соҳибқирон // Марказий Осиё тарихи, археологияси ва этнологиясининг муаммолари / ЎЗМУ. – Тошкент, 2015. – Б. 227-230.; О‘sha muallif. Соҳибқирон Амир Темур даври қадриятлари этнотарихий лавҳаларда / Масъул муҳаррир А. Саидов. – Қарши, 2015. – 410 б.; О‘sha muallif. Амир Темур даврида оилавий тантаналар // Турон ФА Ахборотномаси, 2016. – № 3. – Б. 226-234.; О‘sha muallif. Соҳибқирон Амир Темур даврида этнолингвистика // Ўзбек адабиётшунослигида таҳлил ва талқин муаммолари: Республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Қарши, 2016. – Б. 107-108.; О‘sha muallif. Соҳибқирон Амир Темур сиймоси жаҳон санъати, тарихи, адабиёти намоёндалари талқинида // Соҳибқирон юлдузи, 2016. – № 2. – Б. 99-102.; О‘sha muallif. Темурбек хофизул Қуръон // Соҳибқирон юлдузи, 2016. – № 3. – Б. 73-76.; О‘sha muallif. Турон тарихининг олгин даври. – Т.: Ворис, 2019. – 305 б.

²⁶ Раҳмагуллаева О.Р. Амир Темур даври маданияти ва санъати тараққиёти тарихшунослиги: (1991-2003) // Камолитдин Бехзоднинг жаҳон маданияти тарихида тутган ўрни: Буюк рассом таваллудининг 550 йиллигига бағишланган. – Тошкент, 2005. – Б. 132-136.; О‘sha muallif. Амир Темур салтанатида илм-фан равнақи тарихшунослиги // Амир Темур ва темурийлар даври: янги тадқиқотлар: Республика илмий анжумани материаллари. 2-китоб. – Тошкент, 2005. – Б. 65-71.; О‘sha muallif. Амир Темур ҳаёти ва фаолиятига оид манбаларнинг ўрганилиши // Тарихий манбашуносликнинг долзарб муаммолари: Конференция материаллари тўплами. – Тошкент, 2005. – Б. 62-65.; О‘sha muallif. Соҳибқирон шахсияти: ҳақиқат ва уйдирма // Тафаккур, 2006. – № 1 (46). – Б. 18-19.; О‘sha muallif. Амир Темур салтанати тарихшунослиги // Темурийлар давлатчилиги ва ренессанси: Республика илмий анжумани материаллари. – Тошкент, 2007. – Б. 84-95.; О‘sha muallif. Амир Темур даври маданиятини ўрганиш тарихидан // Ижтимоий фалсафий фанлар: назария ва амалиёт. Илмий-услубий мақолалар тўплами. – Тошкент, 2008. – Б. 187-191.; О‘sha muallif. Амир Темур салтанати тарихнавислиги. (Библиографик кўрсаткич). – Тошкент: Фан ва технология, 2010. – 94 б.; О‘sha muallif. Амир Темур салтанати тарихига оид янги тадқиқотлар // Амир Темур ва темурийлар давридаги илм-фан ва маданият ривожининг жаҳон тамаддунидаги ўрни: Республика илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2017. – Б. 53-60.

²⁷ Файзиёв Х.Т. XV аср биринчи ярмида темурийларнинг Кўк ва Оқ ўрда билан сиёсий алоқаларига доир // Шарқшунослик, 2009. – № 1-2. – Б. 94-101.; О‘sha muallif. Гавҳаршодбегим ва Темурийлар даври сиёсий ҳаёти // Марказий Осиё халқлари тарихи манбашунослиги ва тарихнавислиги масалалари: 4-илмий тўплам. – Тошкент, 2012. – Б. 278-282.; О‘sha muallif. Амир Темур ва Темурийлар даврида илм-фан тараққиёти ва китобхонлик маданияти // “Ўрта асрлар шарқ алломалари ва мутафаккирлари тарихий меросида санъат ва маданият масалалари”. Халқаро илмий-назарий ва амалий конференция материаллари тўплами. – Тошкент, 2018. – Б. 45-47.

²⁸ Мадраимов А.А. Эпоха Темуридов в научном наследии А.З.Валидова // Маънавий-маданий қадриятлар: назарий-методологик масалалар. Илмий мақолалар тўплами. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009. – С. 112-115.; О‘sha muallif. Эпоха Темуридов в научном наследии Ахмад Заки Валидова // Ёш Шарқшуносларнинг Убайдулла Каримов номидаги VII илмий-амалий конференцияси тезислари. – Ташкент, 2009. – Б.32-34.; О‘sha muallif. Спор о происхождении рода Амира Тимура // История и культура народов Евразии прошлое, настоящее, будущее. Материалы международного научно-практической конференции, посвящённой 120-летию со дня рождения видного ученого-пуролога и общественного деятеля Ахмет-Заки Валида Тогана. – Уфа: Гилем, 2010. – С.165-169.; О‘sha muallif. Исламская культура эпохи Тимуридов в трудах А.З.Валидова // Исламская цивилизация в Волго-Уральском регионе. Сборник материалов 4 международного симпозиума. – Уфа, 2010. – С.412-415.; О‘sha muallif. Герат в эпоху Амира Тимура и Темуридов в трудах академика В.В.Бартольда // Маяк Востока. – Ташкент, 2018. – № 1. – С. 113-118.

olimlar o‘z hissalarini qo‘shdi.

Amir Temur faoliyatiga doir mahalliy tadqiqotlar tarixshunosligi va yuqorida keltirilgan ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki, Amir Temur shaxsi, ma‘naviyati, davlat boshqaruvidagi salohiyati, hamda uning ma‘naviy –ma‘rifiy va madaniy merosini chuqur o‘rganish, yozma manbalar asosida tadqiq va targ‘ib qilish masalasi mustaqillik yillarida yuqori bosqichga ko‘tarilgan bo‘lib, bugungi kunning ham dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, milliy o‘zlikni anglash va yoshlar tarbiyasida katta ahamiyat kasb etadi.

Mazkur bobning uchinchi paragrafi “**Amir Temur shaxsining xorijiy tadqiqotlarda o‘rganilishi**” deb nomlangan bo‘lib, mavzu doirasida bajarilgan xorijiy tadqiqotlar tarixshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilingan.

Amir Temur shaxsi tadqiqoti nafaqat O‘zbekistonda, balki Angliya (E.Gibbon³⁰, X.Xukxem³¹, Ch.A.Stori³² va b.), Fransiya (L.M. Langle³³, L.Keren³⁴, Jan Pol Ru³⁵, V.Furnnyo³⁶, M.Brion³⁷ va b.), Germaniya (F.Shlosser³⁸, G.Veber³⁹, bavariyalik I.Shiltberger⁴⁰, T.Negel⁴¹ va b.), Rossiya (A.Semyonov⁴², S.M.Solovyov⁴³, M.Ivanin⁴⁴, A.Yu.Yakubovskiy⁴⁵, A.E.Snesaryov⁴⁶, M.M.Gerasimov⁴⁷, D.Logofet⁴⁸, V.L.Vyatkin⁴⁹, V.V.Bartold⁵⁰, V.L.Kvint⁵¹ va b.), Amerika (B.Mans⁵², Edgar Po va b.), Ispaniya (Rui

²⁹ Равшанов П. Шахрисабз тарихи (Энг қадим даврлардан XX асрнинг I чорагигача). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011. – 548 б.; O‘sha muallif. Оксарой тарихи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. – 172 б.; O‘sha muallif. Темурийлар силсиласи: тарихий роман. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. – 480 б.; O‘sha muallif. Амир Темур сулоласи: роман. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2018. – 656 б.

³⁰ Гиббон Э. История упадка и разрушения Римской империи. Пер.с англ. В.Н.Неведомский. – Ч.7. – Москва, 1886. – С. 170-172.

³¹ Хукхэм Х. Етти иклим султони. Хужжатли тарихий қисса. – Тошкент: Адолат, 1999. – 320 б.

³² Стори Ч.А. Персидская литература. Библиографический обзор. – Ч.2. – Москва, 1972. – С. 792-793.

³³ Langles L.M. Notice chronologique des Khans de Crimée // Forster G. Voyages du Bengale a Petersbourg. – Paris, 1802. An. X. t.3. – P. 325-492.

³⁴ Керэн Л. Амир Темур салтанати. Француз тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Б.Эрматов. Сўзбоши Луи Базен. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. – 248 б.

³⁵ Жан-Поль Ру. Тамерлан. Перевод с французского Е.А.Соколова. – Москва: Молодая гвардия, 2004. – 226 б.

³⁶ Fourniau V. Nouveau present, nouveau passé Samarkand 1400-1500. La cite- oasis de Tamerlan: Coeur d’un Empire et d’une Renaissance. – Paris, 1995. – P. 15.

³⁷ Брион М. Менким, сохибқирон-жаҳонгир Темур. – Тошкент: Ёшлар матбуоти, 2023. – 576 б.

³⁸ Шлоссер Ф. Темур как полководец и государственный деятель. Всеобщая история. – Т.3. – Спб, 1876. – С. 503-504.

³⁹ Вебер Г. Всеобщая история. Перевод М.Андреев. – Москва, 1887. – С. 541-549.

⁴⁰ Шильтбергер И. О Тамерлане. В книге.: Тамерлан: Эпоха. Личность. Деяния / Составление, подготовка, обработка текста Р.Рахманалиева. – Москва: Гураш, 1992. – С. 345–351.

⁴¹ Негель Т. Лотин Европасада дунёвий – маърифий давлат ривожини // Ислом ва дунёвий – маърифий давлат. – Тошкент, 2003. – 25 б.

⁴² Семёнов А. Гийасиддин Али. Дневник похода Тимура в Индию. – Москва: Издательство восточной литературы, 1958. – С.5-8.

⁴³ Соловьёв М.С. Истрия России с древнейших времён. – Т-3-4. – Москва, 1960. – С. 369-370.

⁴⁴ Иванин М.И. О военном искусстве и завоеваниях монголо-татар и среднеазиатских народов при Чингисхане и Тамерлане. – Спб.: “Славия”, 2011. – 318 с.

⁴⁵ Якубовский А.Ю. Государство Тимура / История Узбекской ССР. – Т.1. Ташкент, 1955. – С. 315-316.; Он же. Из истории Золотой Орды // Вопросы истории, 1974. – №2.

⁴⁶ Снесарёв А.Е. Поход Темурлана против Тохтамыша в 1391 году // Военное дело, 1920. – С. 380-388.

⁴⁷ Герасимов М.М. Портрет Тамерлана. – Москва: Сов.наука, 1949. – 187 с.

⁴⁸ Логофет Д.Н. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. – Тошкент: Камалак, 1992. – Б. 7.

⁴⁹ Вяткин В.Л. Большая советская энциклопедия. (в 30 т) / под ред.А.М Прохорова. 3-е издание. – Москва, 1969.

⁵⁰ Barthold V. Four studies on the history of Central Asia. Translated from Russian by V. and T. Minorsky. – Vol. II: Ulugh-Beg. – Leiden: E.J.Brill, 1956. – 200 p.

⁵¹ Квинт В.Л. Амир Темурнинг стратегик етакчилиги. “Тузуқларга изоҳлар”. – Спб.: Стратегия, 2021. – 224 б.

⁵² Manz B. The Rise and Rule of Tamerlan. – Cambridge: Cambridge University Press, 1989. – 228 p.

Gonsales de Klavixo⁵³ va b.), Hindiston (N.Djavaxarlal⁵⁴, Sinxa N. K., Banerdji A. Ch.⁵⁵ va b.), Turkiya (Yu.E.To'g'on⁵⁶, X.Algar⁵⁷, E.Machit⁵⁸, A.Shimshirgil⁵⁹ va b.), Eron (M.Natanziy⁶⁰, N.Shomiy⁶¹, Hofizi Abro⁶², Fasih Ahmad Xavofiy⁶³, Sharafuddin Ali Yazdiy⁶⁴ va b.), Suriya (Ibn Arabshoh⁶⁵ va b.) singari mamlakatlarning olimlari tomonidan ham atroflicha o'rganilgan.

Amir Temur faoliyatiga doir xorijiy tadqiqotlar yildan-yilga ortib bormoqda. Ushbu tadqiqotlarda avvaliga Sohibqironning qattiqqo'l boshqaruvi qoralangan bo'lsa, yangi manbalarning muomalaga kiritilishi, mahalliy tadqiqotlarning ortib borishi, konferensiya va boshqa xalqaro munozaralarda uning faoliyati asosi ochib berilishi natijasida, avvalgi "salbiy" qarashlar tobora kamayib, uning hukmdor sifatidagi haqiqiy tomonlari xolisona ochib berilmoqda.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Amir Temur siyosiy-huquqiy faoliyatining o'zlikni anglash va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati**" deb nomlangan. Ushbu bobning "**Markazlashgan davlatning tashkil topishi va yagona etnomadaniy muhitning shakllanishida Amir Temur va uning "Tuzuklari" o'rni**" nomli birinchi paragrafda Sohibqironning asosiy o'g'itlar kitobi va uning mazmuni tahlil qilingan.

Amir Temur boshqaruvni qo'lga olishi bilan, avvalo boshqaruv asoslarini adolat bilan barcha din va madaniyat vakillari uchun bir xilda bo'lishini ta'min etadi. Din peshvolari, mamlakatning aziz-avliyolariga hurmat ko'rsatadi.⁶⁶ Bu jarayonda Sohibqironni Chig'atoy beklari, harbiy boshliqlar, din peshvolari va oddiy xalq qo'llagan. Amir Temurning har qanday siyosiy vaziyatda ham xalq birligini saqlab qolishga erishgan.

Amir Temur boshqaruv tizimini salohiyatli, ilmi va ma'naviy jihatdan yetuk mutaxassislar bilan amalga oshirgan. Bu holatda hukmdor ularning qaysi elat vakili ekanligiga emas, ko'proq insonning salohiyatiga e'tibor qaratgan. Amir Temur o'z atrofiga odam tanlashda ularning qobiliyatlarini hisobga olgan, lekin nasli, tabaqasi, irqi,

⁵³ Руи Гонсалес де Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура. – М, 1990. – 212 с.

⁵⁴ Неру Джавархарлал. Открытие Индии. Пер. с англ. – Москва, 1965. – 650 с.

⁵⁵ Sinxa N. K., Banerdji A. Ch. Istorija Indii / Perevod s angliyskogo Stepanova L. V., Yastrebovoy I. P. I Knjazinskoy L. A. – Moskva: Izdatel'stvo inostrannoy literatury, 1954. – 440 s.

⁵⁶ Тўғон Э. Амир Темур даврида Марказий Осиё ва Туркия орасидаги сиёсий, маданий ва иқтисодий муносабатлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – 19 б.

⁵⁷ Hamid Algar. "Bahaeddin Nakshibend", DİA, c.4. – S. 458–460; Necdet Tosun. Bahaeddin Nakshibend Hayatı, Görüşleri, Tarikati (XII–XVII). – İstanbul, 2003. – S. 408; Timurlular'da Din ve Devlet İlişkisi, s. 98-99.

⁵⁸ Ensar Macit. "Timurlu ordusunda kullanılan ceza yöntemleri". Çeşm-i Cihan. Tarih, Kültür ve Sanat Araştırmaları E-dergisi. – Cilt 2, sayı 2, 2015. – S. 76-87.

⁵⁹ Шимширгил А. Амир Темур. http://n.ziyouz.com/images/amir_temur2.jpg

⁶⁰ Мўъиниддин Натанзий "Мунтахаб ут-таворихи Муиний". Форс тилидан тарж, сўз боши ва изоҳлар муаллифи Ф. Каримий; маъсул муҳаррир А.Ўринбоев. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – 264 б.

⁶¹ Шомий Низомиддин. Зафарнома. Қайта нашр. Форс тилидан ўғирувчи Ю.Ҳакимжонов; таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва маъсул муҳаррир А.Ўринбоев. – Тошкент: Фан, 2019. – 544 б.

⁶² Хофизиддин-Абру. Зайли Зафарномаи Шомий. Форс тилидан ўғирувчи; таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва маъсул муҳаррир А.Ўринбоев. Изоҳлар ва луғатлар тузувчи Ҳ. Кароматов (географик номлар изоҳи О. Бўриев). – Тошкент, 1996. – Б. 380-528.

⁶³ Фасих Ахмад ал-Хавафи. Мужмал-и Фасихи. Перевод с персидского Д.Ю.Юсуповой. – Тошкент, 1980. – 345 с.

⁶⁴ Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. 1-китоб. Муқаддима. Форс тилидан таржима, сўз боши ва илмий изоҳлар муаллифи О.Бўриев. Маъсул муҳаррир Д. Юсупова. – Тошкент: Фан, 2020. – 284 б.

⁶⁵ Ибн Арабшох. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур. Сўз боши, араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи У.Уватов. Маъсул муҳаррир А.Ўринбоев. I-китоб. – Т: "Меҳнат", 1992. – 328 б; 2-китоб. – 192 б.

⁶⁶ Муқимов З. Амир Темур тузуқлари (тарихий-ҳуқуқий тадқиқот). – Т., 2008. – Б. 21.

dini va mansabiga qaramagan. Hozirgi davr tili bilan aytganda, o‘z atrofiga munosib kishilarni to‘play olgan⁶⁷.

Amir Temur markazlashgan davlati o‘z tarkibiga yigirma yetti mamlakatni⁶⁸ o‘z ichiga olib, bunday yirik, qudratli va mustahkam davlatni barpo qilish, turli elatlardan tarkib topgan yurtlarni birlashtirish, adolat bilan boshqarish oson bo‘lmagan. Shu sababli, boshqaruv borasida “... Amir Temur ortiqcha qattiqqo‘llikni qoralaydi. Rahbar vaziyatdan kelib chiqqan holda goh qattiqqo‘llik, goh muloyimlik bilan boshqarishi maqsadga muvofiq”⁶⁹, deb topadi.

Ko‘rinib turibdiki, Amir Temur saltanatida davlat va jamiyat boshqaruvining huquqiy asoslari yaratilib, qonun ustuvorligi ta‘minlangan. Nafaqat raiyat, balki amaldorlar ham amaldagi qonunni hurmat qilib, unga itoat etgan. Amir Temur tomonidan o‘rnatilgan tartib-qoidaga zid harakat qilgan mamlakat fuqarosi kelib chiqishi, dini, jamiyatda tutgan mavqeyidan qat‘iy nazar jazoga tortilgan.⁷⁰

Amir Temur saltanatidagi adolatli siyosatni o‘z avlodlari tomonidan ham davom ettirilishini istab, ular uchun o‘ziga xos “Tuzuklar”ni yozib qoldiradi. Darhaqiqat, Amir Temur hukmdor sifatida “Tuzuklar”ni o‘z qo‘li bilan yozmagan, balki uning tilidan mirzolar tomonidan yozilgan. Rossiyalik olim, akademik V.L.Kvint⁷¹ Amir Temur va uning “Tuzuklari”ga yuksak baho berib: “... Amir Temur – daho! ... Temurning daholigi, uning har ishida beqiyos irodasi va tengsiz sabr-matnati bilan namoyon bo‘lar edi... Amir Temur “Tuzuklari”ni vorislari uning shonli hayot yo‘lini aynan u belgilagan yo‘nalishda davom ettirib, rivojlantiradi – degan niyatda avlodlariga bag‘ishlagani fikrimizni dalilidir”⁷², deb ta‘kidlaydi.

A.Sog‘uniy “Temur tuzuklari”ni forsiydan o‘zbek tiliga tarjima qilgan va u 1967-yili “Guliston” jurnalida bosilib chiqilgan. O‘sha paytda “Temur tuzuklari” kitobini chop etilishi jamoatchilik uchun katta voqea bo‘lgan. Bu kitob asli o‘zbek (chig‘atoy-turkiy) tilidan forschaga o‘girilgan⁷³, keyinchalik qayta o‘zbekchaga tarjima qilingan.

Asar ikki qismdan iborat. Birinchi qismda, Amir Temurning yetti yoshidan to vafotiga, ya‘ni 1405-yil 18-fevral oyiga qadar kechgan hayoti, ijtimoiy – siyosiy faoliyati, harbiy yurishlari bayon etilgan. Ikkinchi qismida esa, Amir Temur nomidan uning vorislariga aytilgan vasiyat va pand- nasihatlar o‘rin olgan. Asar ko‘pgina xorijiy tillarda, jumladan: 1783-yil fransuz, 1785 va 1791- yillarda hind, 1863-yil fors, 1830-yil ingliz, 1894 va 1934-yillarda rus tillarida chop etilgan. Hozirda uning qo‘lyozma nusxalari dunyoning Hindiston, Eron, Buyuk Britaniya, Daniya, Fransiya, Rossiya, Germaniya, Armaniston, O‘zbekiston kabi ko‘plab mamlakatlari kutubxonalarida mavjud.

Mazkur bobning **“Amir Temurning ma‘naviy-ma‘rifiy qarashlarida diniy e‘tiqod va bag‘rikenglik masalasi”** nomli ikkinchi paragrafida Sohibqironning tolerantlik g‘oyalari va uning jamiyatdagi o‘rni yoritilgan.

⁶⁷ Саидов А. Amir Temur geosiyosatiни ўрганиш нима учун керак... – Б. 12.

⁶⁸ Соснин В.М. Amir Temur ғори ажойиботлари. – Т.: “Чўлпон”, 1993. – Б. 11.

⁶⁹ Куронбоев Қ., Хайитов У. Раҳбар маънавиятининг бошқарув самарадорлигини оширишдаги роли ва аҳамияти. – Т.: Турон замин зиё, 2001. – Б. 21.

⁷⁰ Amir Temur ўғитлари... 1992. – Б. 17.

⁷¹ Izoh. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga ko‘ra, Rossiya Fanlar akademiyasi akademigi Vladimir Kvint “Amir Temurning strategik yetakchiligi. “Temur tuzuklari sharhlar” ilmiy monografiyasi uchun Davlat mukofoti bilan taqdirlangan. 2023-yil 4-fevral.

⁷² Квинт В.Л. Amir Temurning strategik etakchiligi... – Б. 11-12.

⁷³ “Temur tuzuklari” А. Соғуний таржимаси // Гулистон журнали, 1967. 2-сон.

Amir Temurning davlatchilik siyosatida diniy bag'rikenglik masalalari hali fanda maxsus mavzu sifatida o'rganilmagan bo'lsa-da, ba'zi tadqiqotlarda bu mavzuga oid qisqa ma'lumotlar uchraydi⁷⁴. Bunga misol tariqasida A.Muhammadjonov, O.Bo'riyev, N.G'oyibov, Sh.O'ljayeva, A.Madramimov, K.Sultonov, O'.Palvanov, M.Ahmedova singari tadqiqotchilar tomonidan yozilgan asar va maqolalarni keltirish mumkin⁷⁵.

Amir Temurning hayoti va faoliyatida Islom dinining o'rni va ahamiyati yuqori bo'lgan. U islom dini va uning qonun-qoidalarining otashin homiyi sifatida o'z faoliyatida bu masalaga alohida e'tibor qaratgan⁷⁶. "Temur tuzuklari"ning e'tiborga loyiq tomoni shundaki, unda nafaqat davlat barpo etish va uni boshqarish, balki Islom diniga to'g'ri e'tiqodni yo'lga qo'yish, uni turli jangari, ekstremistik oqimlar ta'siridan saqlash, kuchsizlarni suyash, kam ta'minlanganlarga muruvvat ko'rsatish, ilm va hunar ahlini ardoqlash, oqibatli va kechirimli bo'lish, ahli ayol va zurriyotlarga mehribonlik ko'rsatish kabi mavzular yoritib berilgan⁷⁷.

Amir Temur Islom diniga nisbatan to'g'ri e'tiqodni yo'lga qo'yish, raiyatni turli ekstremistik oqimlar ta'siriga tushib qolmasligini oldini olish maqsadida, doimo raiyatni birdamlik va hamjihatlikka chorlagan⁷⁸. Amir Temur e'tiqodning sof bo'lishi, turli bid'at-xurofotlar bo'lmasligi tarafdori bo'lgan⁷⁹. Amir Temur Movarounnahr va Xurosonda yashab ijod qilgan tasavvuf ilmining yirik peshqadamlari Abduxoliq G'ijduvoni, Ahmad Yassaviy, Ali Hakim at-Termiziylarni o'zining majoziy pirlari hisoblab, ular ruhiga hurmat bajo keltirdi. Shahrisabz, Termiz, Yassi shaharlarida Shayx Shamsiddin Kulol, Ali Hakim at-Termiziy, Ahmad Yassaviy qabrlari ustiga maqbaralar qurdirdi.

Amir Temur diniy bag'rikenglik sifatlariga ega hukmdor sifatida, boshqa dinlarga e'tiqod qiluvchi insonlarga ham yuksak iltifot ko'rsatgan. Uning Fransiya, Ispaniya, Angliya kabi mamlakatlar hukmdorlari bilan diplomatik aloqalar o'rnatib, ular bilan olib borgan yozishmalari, bu mamlakatlar elchilarini qabul qilib, yuksak iltifot ko'rsatganligi – yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaydi.

Sohibqiron o'z davrida dinga bo'lgan munosabati va diniy bag'rikengligi tufayli jamiyat ahlining hurmat va e'tiborini qozongan. Natijada, Markaziy Osiyo mintaqasi, xususan, O'zbekiston ko'p asrlar davomida dinlararo bag'rikeng o'lka sifatida e'tirof etib kelinmoqda. Bu zaminda azaldan turli elat va millat vakillari yonma-yon inoqlikda yashab kelgan. Shu bois, diniy bag'rikenglik – o'zbek xalqining milliy qadriyatiga aylangan, desak xato bo'lmaydi.

Dissertatsiyaning **“Milliy o'zlikni anglashda Amir Temurning ma'naviy-ma'rifiy qarashlarining o'rni”** deb nomlangan uchinchi bobida Sohibqironning o'z

⁷⁴ Ўлжаева Ш. Amir Temurning davlatchilik siyosatida diniy bag'rikenglik masalalari... – B. 131.

⁷⁵ Muhammadjonov A. Temur va temuriylar saltanati. – T., 1996; O'sha muallif. Temur va Ulug'bek davri tarixi. – T., 1996.; Buriyev O. Temuriylar davri ezma manbalariida Markaziy Osiyo. – T.: Uzbekiston, 1997.; Foyibov N. Amir Temur davri ma'naviyati. – T.: F.Fulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2001.; Uljaeva Sh. Amir Temurning davlatchilik siyosatida diniy bag'rikenglik masalalari // Respublika ilmiy anjumani materiallari. – T., 2005. – B. 132.; Sultonov K. Amir Temurga munosib vorislar. – T.: Yangi nashr. 2014. – B. 67-72.; Madramimov A. Samarqandiyning "Matla'i sa'dayn va majma'i ba'xrayn" asarida tasviriy san'at tarixiga oid ma'lumotlar // Respublika ilmiy anjumani materiallari. – T., 2021. – B. 206.; Palvanov Y. Sohibqiron Amir Temur ezozlagan alloma // Respublika ilmiy anjumani materiallari. – T., 2021. – B. 206.; Ahmedova M. Amir Temur un ikki tuzukining bugungi ahamiyati // Respublika ilmiy anjumani materiallari. – T., 2021. – B. 225.

⁷⁶ Temur tuzuklari... 2011. – B. 79.

⁷⁷ Amir Temur. Tuzuklar... 2016. – B. 4.

⁷⁸ Amir Temur. Tuzuklar... 2016. – B. 126.

⁷⁹ Ahmad Muhammad Turson. Dunyo tebratgan etti buyuk. <https://azon.uz/content/views/amir-temur-va-islom>

faoliyatida qoʻllagan maʼnaviy va maʼrifiy tadbirlarining oʻzlikni anglashdagi oʻrni ochib berilgan boʻlib, bobning dastlabki paragrafida **“Istiqlol yillarida milliy oʻzlikni anglashda Sohibqiron Amir Temur shaxsi”** oʻrmini koʻrsatib berishga qaratilgan.

Istiqlol yillari temurshunoslik yoʻnalishida olib borilgan tadqiqotlar oʻzbek xalqining milliy oʻzligini anglashida ulkan ahamiyat kasb etdi. Bu davlatda oʻziga xos boshqaruv asoslari yaratilgan boʻlib, davlat va jamiyatning tinchligi, xalq farovonligini taʼminlashga qaratilgan. Amir Temur barpo etgan saltanat oʻzining harbiy salohiyati, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy barqarorligi, ilm-fan, madaniyat va sanat rivoji bilan boshqa davlatlarga namuna boʻlgan.

Amir Temur oʻz hayoti va faoliyatida har bir mojaro va muammoli vaziyatni diqqat bilan tekshirib, ularni adolatli hal qilishga harakat qilgan. Oʻz tasarrufida boʻlgan mamlakatlar fuqarolariga nisbatan rahm – shafqatli va kechirimli boʻlgan. Kambagʻal, yetim-yesir va muhtojlarga koʻp xayr-ehson qilgan. Biroq, nafi buzuvchi, gʻarazgoʻy, tuhmatchi, oʻgʻri-qaroqchi va axloqsiz odamlarni qilgan gunohiga yarasha, shariyat va jamiyat mezonlari boʻyicha jazolagan.⁸⁰

Amir Temur ilm, ijod va hunar ahliga homiylik qilgan. Ular faoliyati uchun zarur shart – sharoitlar yaratib bergan.⁸¹ Bundan koʻrinadiki, boshqa xalqlarga nisbatan tolerantlik, bagʻrikenglik va totuvlik hissi mahalliy aholi orasida yillar davomida shakllanib kelgan va bugungi Oʻzbekiston xalqining oʻzligining bir ajralmas qismiga aylangan.

A.Temur davlat ishlarini qonun-qoidalarga tayangan holda boshqarib, jamoatchilikning barcha qatlam vakillarining haq-huquqlari qonun yoʻli bilan himoya qilish tizimini yoʻlga qoʻygan.⁸² Yaʼni, davlatda qonun ustuvorligi mamlakatning farovon hayotini taʼminlash uchun asos boʻlib xizmat qildi. Shu sababli, bugungi kunda ham Oʻzbekistonda qonun ustuvorligini taʼminlash maqsadida asosiy qomus Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga katta eʼtibor qaratilib, 2023-yilda uni yana takomillashtirildi va 65% moddalariga oʻzgartirishlar kiritilib, uni xalq uchun xizmat qilishiga yana koʻproq yoʻnaltirildi.

A.Temur yuksak maʼnaviy-axloqiy fazilatlarga ega boʻlgan hukmdor sifatida barchani, jumladan farzandlari, nabiralari va oʻz mulozimlarini ham axloqli, odobli, insofli boʻlishga daʼvat etgan.⁸³

Amir Temur saltanat boshqaruviga ishonchli kishilarni jalb etgan. U nafaqat jamiyat aʼzolari, balki oʻz navkarlari orasidan ham aql-farosatli, dovyurak, tadbirkor va ishbilarmonlik xislatlariga ega boʻlgan, ishonchli va sodiq kishilarni boshqaruvchilik darajasiga koʻtargan. Misol uchun, dushman bilan boʻlgan janglarda jasorat koʻrsatgan 313 askarni amirlik mansabiga tayinlab, ularning bu mansabda munosib faoliyat yuritishlari uchun barcha imkoniyatlarni yaratib bergan.⁸⁴ Xususan, Oliy Majlis Senatining 65 senatoridan 9 nafari Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan fan, sanʼat, adabiyot, ishlab chiqarish sohalari hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega boʻlgan hamda alohida xizmat koʻrsatgan eng

⁸⁰ Temur tuzuklari...1991. – B. 94-95.

⁸¹ Amir Temur ajdodlari... – B. 29.

⁸² Amir Temur. Tuzuklar... 2016. – B. 66.

⁸³ Temur tuzuklari...1991. – B. 68.

⁸⁴ Temur tuzuklari...1991. – B. 79.

obroʻli fuqarolar orasidan tayinlanadi⁸⁵. Bu esa davlat rahbarining munosiblarni oʻz atrofiga toʻplash, ularning bilim va salohiyatidan xalq hamda davlat manfaati yoʻlida samarali foydalanishni koʻzda tutadi.

Uchinchi bobning **“Amir Temur maʼnaviy-maʼrifiy va bunyodkorlik faoliyatining jamiyat hayotiga taʼsiri”** deb nomlangan ikkinchi paragrafida Sohibqironning jamiyat hayotini yaxshilashga qaratilgan faoliyati manbalar asosida yoritilgan.

Sohibqiron Amir Temurning bevosita amalga oshirgan saʼy-harakati tufayli “XIV-XVI-asrlardagi Ikkinchi Sharq Uygʻonish davrida jamiyatda eʼtiqod mustahkam, maʼnaviyat kuchli, insonlar dunyoqarashida maʼnaviyat ustuvor, davlatchilik tuzumida maʼnaviyat va maʼrifat yetakchi boʻlgan”⁸⁶. Amir Temur hukmdorligi davrida madaniyat va sanʼatning barcha turlari, xususan tasviriy va musiqa sanʼati rivojlangan.

Amir Temur saltanatida yaratilgan imkoniyat, bugungi kunda Oʻzbekistonni unikal sanʼat va madaniyat markaziga aylantirgan asarlarning shakllanishiga turtki beradi. Xususan, musiqa sanʼatida bebaho maʼnaviy meros sifatida yetib kelgan Buxoro Shashmaqomi, Xorazm maqomlari, Fargʻona-Toshkent maqomchilik sanʼati yuzaga kelishi asoslari A.Temur saroyida shakllanib, soʻngra Temuriylar davrida ravnaq topgan. “Oʻn ikki maqom tizimi” poydevorga zamin boʻlgan. Qolaversa, 1997 - yildan buyon Samarqand shahrida muntazam oʻtkazib kelinayotgan “Sharq taronalari” xalqaro festivalini A.Temur davrida asos solingan anʼalarining yangi shart sharoitlardagi davomi va zamonaviy koʻrinishi sifatida baholash mumkin⁸⁷.

Taʼkidlash joizki, A.Temurning bunyodkorlik va obodonchilik faoliyati, uning maʼnaviy-maʼrifiy qarashlarini koʻrsatadigan muhim omillardan biri hisoblanadi.⁸⁸

Amir Temurning hukmronligi davrida shaharsozlik va meʼmorchilik sohalariga ham katta eʼtibor qaratilgan. Bu sohalar nafaqat Samarqandda, balki A.Temur tasarrufida boʻlgan barcha mamlakat shaharlarida ham ravnaq topgan.⁸⁹ Amir Temur oʻz tasarrufida boʻlgan mamlakatning har bir shahar, qishloqlarida ijtimoiy-iqtisodiy soha rivoji uchun zarur boʻlgan imoratlar, jumladan, masjid, madrasa, xonaqoh, rabot, koʻpriklar bunyod etishga rahnamolik qilgan.⁹⁰ A.Temur amri bilan bunyod etilgan bu inshootlar, jumladan masjid va madrasalar jamiyat hayotiga ijobiy taʼsir koʻrsatib, aholi savodini koʻtarishga xizmat qilgan.

Sohibqiron, ayniqsa, Samarqandda olib borilgan bunyodkorlik va obodonchilik ishlariga katta eʼtibor qaratgan. A.Temur hukmronligi davrida Samarqand farovonlik hukm surgan va goʻzallikka burkangan koʻrkam shaharga aylandi.⁹¹ Shaharning ichki va tashqi qalʼasi qayta tiklanib, Samarqand arki ichida toʻrt qavatli ikkita ulkan maʼmuriy bino – Koʻksaroy va Boʻstonsaroy qurilgan. Bundan tashqari, Shahrison va uning olti darvozasi, Shahzoda, Ohanin, Feruza, Soʻzangaron, Korizgoh, Chorsu qayta tiklanib, yanada obod va koʻrkam holatga keltirilgan.⁹²

⁸⁵ Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 92-modda // <https://lex.uz/docs/-6445145#-6445771>

⁸⁶ Саидов А. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси <https://pravacheloveka.uz/uz/news/m7347>

⁸⁷ Иброхимов О. Амир Темур ва Темурийлар даври музыка маданияти... – Б. 189.

⁸⁸ Бўриев О. Амир Темурнинг хорижий мамлакатлар ободончилигига қўшган хиссаси... – Б. 14.

⁸⁹ Муқимов М. Асло сўнмас шухрати бор соҳибқироннинг // Халқ сўзи” газетаси, 1996 йил 29 октябрь.

⁹⁰ Темур тузуклари...1991. – Б. 99.

⁹¹ Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома...1972. – 1270 б.

⁹² Qarang: Amir Temurning milliy davlatchilik siyosati: tarix va hozirgi zamon. – T.: Fan, 2006. – B. 26.

Ma'lumki, Amir Temur farmoni bilan Samarqandda 12 ta ko'rkam bog'lar barpo etilgan. Amir Temur saltanatidagi ana shu bog'lari ichida eng mahobatlisi "Bog'i Dilkusho" bo'lgan. Bu bog' Amir Temurning eng sevimli maskanlaridan biri bo'lib, turli o'lkalardan kelgan usta-me'mor va hunarmandlar ishtirok etib, ikki yilda qurib bitkazilgan. Sohibqiron safarda bo'lgan vaqtlarda bu bog'lar oddiy fuqarolar ixtiyoriga berilgan. Shahar va tevarak atrof aholisi, qavm-qarindoshlari, yaqinlari bilan birgalikda bog'larda hordiq chiqargan. Bundan xulosa qilish mumkinki, A.Temur qurdirgan binolar, bog'lar va boshqa inshootlar faqatgina hukmdor va uning oilasi xizmatini qilish uchun emas, balki oddiy xalq uchun ham xizmat qilgan. Bu esa bugungi zamonaning talablari, ya'ni davlat xalq uchun ishlashi lozimligi tamoyiliga to'la mos keladi.

Uchinchi bobning **"Barkamol avlod tarbiyasida Amir Temur qarashlarining ahamiyati"** deb nomlangan uchinchi paragrafida Sohibqironning barkamol yoshlarni tarbiya qilishga qaratilgan faoliyati ochib berilgan.

Amir Temur barcha fuqarolarni, jumladan qo'l ostidagi amaldorlarni, ayniqsa o'z vorislarini poklik va halolikka da'vat etib, ularni din aqidalariga zid va gunoh hisoblangan qimor o'ynash, sudxo'rlik va poraxo'rlik bilan shug'ullanish, hasad va g'iybat, ichkilikbozlik va zino qilishdan tiyilishga chaqirgan.

Amir Temur mayxo'rlik og'ir va salbiy oqibatlariga olib kelishini nazarda tutib, farzandlarini ham kayf beruvchi narsalardan tiyilishga chaqirgan.⁹³ Bundan ma'lum bo'ladiki, hukmdor avvalgi davlatlarning bu boradagi faoliyati va uning yakunlari, tarixi bilan yaxshi tanish bo'lgan va bu oqibatlar uning avlodlari boshiga ham tushmasligi uchun ularni ogoh bo'lishga chaqirgan.

Amir Temur o'z qadri-qimmatini, vijdoni, or-nomusi va g'ururini saqlay olmaydigan xiyonatkor, qo'rqqoq va sotqin odamlardan nafratlangan. Mard, jasur, haqqo'y va sodiq insonlarni qadrlagan.⁹⁴ Bundan anglashiladiki, Amir Temurning muvaffaqiyati asosida nafaqat harbiy mahorat va qat'iyat, balki rostgo'ylik, adolat, jasurlik xislatlari ham yotadi.

Barkamol avlod tarbiyasida, ayniqsa ularning ma'naviyatini yuksaltirishda kitob va uning mutolaasi muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixda o'tgan ko'plab buyuk insonlar singari Amir Temur ham o'z davrining ma'naviyatli va ma'rifatparvar hukmdori sifatida kitobni qadrlagan. U yoshligidanoq kitob mutolaa qilib, bilim olishga, odil va fozil kishilarning qoldirgan merosini o'rganishga intilgan.⁹⁵ Sohibqiron fikriga ko'ra: "Kitob – barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idrokning, ilm-u donishning asosidir, hayotni o'rgatuvchi murabbiydir" yoki "Yozilgan kitob avlodlar xotirasi uchun qilingan barcha narsalardan ko'proq va uzoq yashaydi"⁹⁶.

Zamonaviy O'zbekistonda ham Amir Temur tomonidan qadrlangan, davlatning rivoji uchun muhim hisoblangan kitobxonlikka e'tibor yildan-yilga kuchayib bormoqda. Bu borada shaxsan davlat rahbari Sh.M.Mirziyoyev "5 ta muhim tashabbusni" ilgari surdi. Ushbu 5 tashabbusning to'rtinchisi "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan".⁹⁷ Bundan tashqari, yaqinda qabul qilingan "Yoshlar uchun ming kitob"⁹⁸

⁹³ Брион М. Менким, сохибқирон-жахонгир Темур... – Б. 71.

⁹⁴ Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур...1992. – Б. 121.

⁹⁵ Низомиддин Шомий. Зафарнома. 2-жилд. – Б. 162.

⁹⁶ Амир Темур ўғитлари... – Б. 59.

⁹⁷ <https://kun.uz/news/2019/03/20/prezident-beshta-muhim-tashabbusni-ilgari-surdi-ular-nima> (Фойдаланилган сана: 25.10.2023)

loyihasi ham jahonda mashhur 1000 ta kitob o‘zbek tiliga tarjima qilinib, keng ommaga havola qilish orqali yoshlarni bilim va dunyoqarashini kengashtirish maqsad qilingan. Bu esa Amir Temur davrida dolzarb bo‘lgan masalalar, bugungi kunda ham muhim bo‘lib qolayotganidan dalolat beradi.

XULOSA

“Milliy o‘zlikni anglashda Amir Temur omilining tarixiy tahlili” mavzusidagi dissertatsiya yuzasidan quyidagi xulosalarni ilgari surish mumkin:

1. Istiqloq yillari amalga oshirilgan tadqiqotlar tahlili shundan dalolat beradiki, bu davrda O‘zbekistonda Amir Temur shaxsiga nisbatan bo‘lgan hurmat va ehtirom o‘z o‘rniga qo‘yildi. Uning nomi bilan bog‘liq sanalar xalqaro miqyosda nishonlanayotgani, 1996 yilni “Amir Temur yili” – deb e‘lon qilinishi va “Amir Temur” ordeni ta‘sis etilishi, Prezident Sh.M Mirziyoyevning tashabbusi bilan 2019-yil 28-iyundan boshlab (PQ-4375, 2019-yil 28-iyun) O‘zbekistonda «Temurbeklar maktabi» harbiy-akademik litseyleri faoliyat yuritayotganligi – buning yaqqol isboti hisoblanadi;

2. Amir Temurning faoliyati borasida mahalliy va xorijiy tadqiqotlar salmog‘i yildan-yilga ortib, tadqiqot mavzulari kengaymoqda. Hozirgi kunda Rossiya, AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Hindiston, Turkiya, Eron, Pokiston va boshqa mamlakatlarda Amir Temur faoliyatiga bag‘ishlab yuzlab asarlar yozilib, unda sarkardaning haqiqiy fazilatlari, davlat va madaniyat rivoji uchun amalga oshirgan faoliyati haqqoniy baholanmoqda;

3. Amir Temur shaxsi, ma‘naviyati, davlat boshqaruvidagi salohiyati, hamda uning ma‘naviy–ma‘rifiy va madaniy merosini chuqur o‘rganish, yozma manbalar asosida tadqiq va targ‘ib qilish masalasi mustaqillik yillarida yuqori bosqichga ko‘tarilgan bo‘lib, bugungi kunning ham dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, milliy o‘zlikni anglash va yoshlar tarbiyasida katta ahamiyat kasb etadi;

4. Amir Temur singari buyuk ajdodlarning hayoti millat uchun maktab, xato-kamchiliklari esa dars bo‘lmog‘i lozim. Ular tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatoliklardan to‘g‘ri xulosa chiqarib, bu xato-kamchiliklarni hayotda takrorlamaslik, yaxshi fazilatlarini o‘rganib, kundalik hayotda tatbiq etish lozim. Ayniqsa, “Temur tuzuklari” va unda keltirilgan mulohazalar mamlakat yoshlarini tarbiyasida asosiy adabiyotlardan biriga aylanishi lozim;

5. Amir Temur o‘z davrida saltanat mavqeyi va kuch qudratini saqlash, faqat harbiy salohiyatga emas, balki xalqning tinchligi, turmush farovonligi, adolatli boshqaruvga bog‘liqligini chuqur anglagan. Sohibqironning o‘zi ma‘naviyati yuksak inson bo‘lib, oila a‘zolari va qo‘l ostidagi xodimlarni ham axloqiy jihatdan tarbiyalashga intilgan. Shu bois, Sohibqiron o‘zining vorislari zimmasiga adolat bilan siyosat yuritish vazifasini yuklab, oralarida nifoq bo‘lmasligini uqtirgan.

6. Sohibqiron o‘z davrida dinga bo‘lgan munosabati va diniy bag‘rikengligi tufayli jamiyat ahlining hurmat va e‘tiborini qozongan. Natijada, Markaziy Osiyo mintaqasi, xususan, O‘zbekiston ko‘p asrlar davomida dinlararo bag‘rikeng o‘lka sifatida e‘tirof etib kelinmoqda. Bu zaminda azaldan turli elat va millat vakillari yonma-yon inoqlikda

⁹⁸ “Ёшлар учун минг китоб” лойиҳасини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги Президент қарори (ПҚ–380-сон, 28.11.2023 й.)

yashab kelgan. Shu bois, diniy bag‘rikenglik – o‘zbek xalqining milliy qadriyatiga aylangan.

7. Amir Temur davlat siyosatini belgilash va uni amalda hayotga tatbiq etishda naqshbandiya tariqati g‘oyalarini ifodalovchi “Rosti-rusti”, ya’ni barcha munosabatlarda, jumladan davlatlararo aloqalar, ijtimoiy-siyosiy munosabatlardan tortib, jamiyat a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda ham haqiqat va adolat mezonlarining ta’minlanishiga harakat qilgan. Sohibqiron bu g‘oyani yanada takomillashtirib, “Kuch- adolatdadir”, – degan shiorni ilgari suradi va o‘z “Tuzuklari”ni ham ana shu qoida asosida yaratib, o‘z faoliyatida ana shu qoidaga rioya etgan.

8. Amir Temurning xalqlarni birlashtirish, markazlashgan davlat barpo etish, farovon hayot tarzini tashkil etish, adolatli jamiyat qurish borasidagi say-harakatlari avlodlar uchun ulkan tajriba maktabi bo‘lib, undan unumli foydalanish, O‘zbekistonning istiqboldagi rivoji uchun asos sifatida ishlatish muhimdir. Shu sababdan bugungi kunda Amir Temur shaxsi va uning asarlarini maktablarda alohida katta mavzular sifatida o‘qitilishi, kelajakdagi odil, barkamol va vatanparvar yoshlarni tayyorlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur mavzuni tadqiq etish jarayonida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Amir Temur shaxsi, uning ma’naviyatiga doir tarixiy ma’lumotlarni turizm sohasi uchun turli tillarda ommabop risola va qo‘llanmalar yaratish;

2. Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan yaratilgan Amir Temur davri madaniyati, uning ma’naviy-ma’rifiy qarashlariga oid sara asarlarni xorijiy tillarga tarjima qilish va turkum ko‘rsatuvlar olish;

3. Harbiy oliy o‘quv yurtlari va Temurbeklar maktabi kursantlari uchun o‘quv qo‘llanma va darsliklar, Amir Temur ma’naviyatiga doir fundamental loyihalar yaratish;

4. Amir Temur va Temuriylar oilasiga doir teleko‘rsatuvlar va ommaviy internet tarmog‘i uchun kontentlar yaratish ishini kuchaytirish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/06.04.2024. Tar.20.05 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ИМ. ШАРАФА РАШИДОВА**

ТЕРМЕЗСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

СУЛТОНОВ КОМИЛЖОН АСЛОНОВИЧ

**ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФАКТОРА АМИРА ТЕМУРА В
ОСОЗНАНИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ**

07.00.01 – История Узбекистана

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по историческим наукам

Самарканд – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по историческим наукам была зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инновации Республики Узбекистан за № В2025.1.PhD/Tar1697.

Диссертация выполнена в Термезском государственном университете
Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещен на веб-странице Ученого совета (www.samdu.uz) и Информационно-образовательном портале "ZiyoNET" (www.ziyo.net).

Научный руководитель: Дониёров Алишер Худайбердиевич
доктор исторических наук, профессор

Официальные оппоненты: Жамолова Дилноза Муйдиновна
доктор исторических наук, старший научный сотрудник
Усмонов Бахриддин Ахмедович
доктор исторических наук, профессор

Ведущая организация: Каршинский государственный университет

Защита диссертации состоится "24" 10 2025 г в 14:00 часов на заседании Ученого совета за № DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 в Самаркандском государственном университете им. Шарофа Рашидова. (Адрес: 140104, город Самарканд, Университетский проспект, 15. Тел.: (99866) 239-11-40, (99866) 239-18-92; Факс: (99866) 239-11-40; e-mail: ректор @samdu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного университета им. Шарофа Рашидова (зарегистрирована за № 95) (Адрес: 140104, город Самарканд, Университетский проспект, 15). Тел.: (99866) 239-11-40, (99866) 239-18-92, факс: (99866) 239-11-40.

Автореферат диссертации разослан «12» 10 2025 года
(реестр протокола № 6 от «12» 10 2025 года)



Б.Э.Эргашев
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д.и.н., профессор

Ф.А.Нарманов
Секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии (PhD)

Г.Б.Нормуродова
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д.и.н., доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В условиях усиливающейся глобализации и возрастающих угроз миру и стабильности, организация духовно-просветительской и идеологической работы в Узбекистане, соответствующая требованиям времени, становится все более актуальной. В годы независимости изучение, анализ и раскрытие истории великих предков на основе беспристрастных источников, применение новых научных подходов и восстановление национальных ценностей способствуют укреплению сознания национальной идентичности.

Научно-исследовательские центры и образовательные учреждения в развитых странах мира, включая Великобританию, Францию, Германию, Россию, США, Испанию, Италию, Индию, Турцию, Иран, Египет, Пакистан, Сирию, а также крупные организации ООН и ЮНЕСКО под руководством международных организаций, проводят обширные исследования в области истории, политики, военных событий, права, источниковедения, направленные на более глубокое изучение личности Амира Темура, а также на анализ его политической, социально-экономической, военной, культурной и просветительской деятельности.⁹⁹ Это свидетельствует о том, что влияние и незабываемые заслуги Амира Темура в развитии человечества по достоинству оценены просвещенным миром. Поэтому все более актуальной становится задача увеличения количества и качества исследований в этой области, содействия объективному толкованию личности Амира Темура на основе международного сотрудничества, использования его учения в воспитании молодежи и понимании национальной идентичности.

Для начала периода «Третьего Возрождения» в Новом Узбекистане, необходимо помнить об исторических этапах и брать с них пример. Об этом неоднократно подчеркивал в своих выступлениях Президент Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёев.¹⁰⁰ За годы независимости многие местные ученые пересмотрели деятельность Амира Темура и, руководствуясь беспристрастностью, переосмыслили его историю. При этом особое внимание уделялось тому, чтобы избежать ложной интерпретации истории, которая была характерна для предыдущего периода. После научного обобщения проведенных за эти годы исследований, основанного на новых данных и переведенных источниках, мы сможем проанализировать роль его политико-правовых и духовно-просветительских взглядов в формировании национальной идентичности на основе первоисточников.

⁹⁹<https://en.unesco.org/silkroad/knowledge-bank/timurid-states-fifteenth-and-sixteenth-centuries>,

<https://study.com/academy/lesson/timurid-empire-history-architecture-map.html>,

<https://www.britishmuseum.org/collection/term/x23294>,

<https://faculty.washington.edu/dwaugh/01hist225/225chron/timurchr1.html>,

[https://www.cambridge.org/core/books/abs/cambridge-history-of-inner-asia/late-timurids-c-](https://www.cambridge.org/core/books/abs/cambridge-history-of-inner-asia/late-timurids-c-14501526/382A4FCACCA2D23E125DB49C0F5A118E)

[14501526/382A4FCACCA2D23E125DB49C0F5A118E](https://www.cambridge.org/core/books/abs/cambridge-history-of-inner-asia/late-timurids-c-14501526/382A4FCACCA2D23E125DB49C0F5A118E),

[https://www.britannica.com/topic/history-of-Central-Asia-](https://www.britannica.com/topic/history-of-Central-Asia-102306/Timur)

[102306/Timur](https://www.britannica.com/topic/history-of-Central-Asia-102306/Timur), <https://www.alfusaic.net/civilizations-101/timurid>, [https://iranicaonline.org/articles/economy-vi-in-the-timurid-](https://iranicaonline.org/articles/economy-vi-in-the-timurid-period)

[period](https://iranicaonline.org/articles/economy-vi-in-the-timurid-period), <https://historyofpak.com/political-history/timurid-empire-rise-conquests-and-cultural-legacy-in-central-asia>,

<https://yalebooks.yale.edu/book/9780300251128/from-genghis-khan-to-tamerlane/> и др.

¹⁰⁰ Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на торжественном собрании, посвященном «Дню учителей и наставников». 1 октября 2019 год. www.president.uz

Диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, указанных в Указах Президента Республики Узбекистан № ПФ60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы», № ПП4375 от 28 июня 2019 года «Образование подростков в духе военного патриотизма и подготовка кадров для Вооруженных Сил Республики Узбекистан и государственной службы», а также в Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 23 февраля 2018 года № 140 «Об утверждении Концепции воспитания молодежи в духе военного патриотизма» и в других нормативно-правовых документах.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан I. «Формирование системы инновационных идей и пути их осуществления для социального, правового, экономического, культурного, духовно-образовательного развития информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. В период независимости развитие местного исследования А.Темура изучалось в два этапа:

Первый этап включает в себя 1991-1996 годы и включает повторное изучение и оценку научной ценности источников и данных, связанных с Амиром Темуром и периодом Тимуридов. Второй этап охватывает период с 1996 года по настоящее время. На этом этапе концептуальные подходы к изучению темы полностью изменились, и деятельность исследователей сосредоточена на признании Амира Темура и наследия Тимуридов мировым сообществом.

Кроме того, проанализированы зарубежные исследования по данной теме с точки зрения историографии, и сделаны соответствующие выводы. Обзор литературы подробно изложен во втором и третьем параграфах первой главы диссертации.

Связь диссертационного исследования с планами научно-исследовательских работ высшего учебного заведения, где была выполнена диссертация. Диссертация выполнена в рамках научно-исследовательской работы Термезского государственного университета.

Целью исследования является выявление место политико-правовых и духовно-просветительских взглядов Амира Темура в понимании национальной идентичности на основе источников и научных исследований.

Задачи исследования:

Сравнительный анализ теоретико-методологических взглядов, связанных с изучением Амира Темура и его деятельности;

